

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR  
UYUSHMASI

# SULAYMON RAHMON

DUNYODAN SHE'R YIG'IB,  
DUNYOGA SOCHDIM

*She'rlar*

TOSHKENT  
«ADABIYOT»  
2021

Loyiha rahbari  
**Sirojiddin SAYYID,**  
*O'zbekiston xalq shoiri*

To'plovchi  
**Muhiddin ABDUSAMAD**

Sulaymon Rahmon o'zbek she'riyatida o'z izini qoldira olgan shoir. Uning to'plamlari she'riyat ixlosmandlarining sevimli kitoblariga aylangan bo'lsa, jahon adabiyotining sara namunalaridan qilgan tarjimalari o'zbek tarjima maktabi xazinadan munosib o'rin egalladi.

Mazkur to'plamga shoirning sara she'rlaridan tartib berildi.

ISBN 978-9943-7106-9-6

© S. Rahmon, 2021  
© «Adabiyot», 2021

---

\* \* \*

Kut, yetib borgayman bir kun hansirab,  
yo'limni to'ssa-da agar qonsirab,  
    hasadlar,  
        alamlar,  
            ta'nalar,  
                toshlar...

Menga bas kelolmas adovat, hasrat,  
yengolmas nolalar,  
    g'amlar,  
        ko'zyoshlar...  
Kut, senga yetgayman, ey buyuk MAQSAD!

\* \* \*

Bu sevgimi, otashmi, g'ussa?  
Yo Rabb, dilni tilib tashladi!  
Tasodifiy o'sha bir bo'sa,  
meni telba qilib tashladi!

Keyin esa... nachora, sensiz,  
yog'ib o'tdi dalalarga qor;  
keyin esa ... bechora, sensiz,  
kelib ketdi necha bor bahor.

Keyin esa... menga ovunib,  
izlaringni axtardi yo'llar;  
keyin esa... seni sog'inib,  
ado bo'ldi hajringda gullar.

Keyin esa... ko'zim xobini,  
tilab oldi uyquchi tog'lar;  
keyin... qalbim iztirobini,  
ko'tarolmay sarg'aydi bog'lar...

Qayt, bu bog'lar tamom so'lmasin,  
qayt, vafodan hikoyalar ayt;  
mayli, menga rahming kelmasin,  
tabiatga shafqat qil faqat...

\* \* \*

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
kim u buzgan halovatini?  
Bosriqdimi ko'rib yomon tush,  
yo gazanda yuldi patini?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
yolg'izlik yo jondan o'tdimi?  
Kuydirdimi yuragini ishq,  
ishongani tashlab ketdimi?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
tunni yirtar achchiq nolasi.  
Yo qildimi noboproq bir ish,  
erkalanib tantiq bolasi?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
mitti jonda nechun shuncha dod?  
Yuz burdimi undan elu xesh,  
qolmadimi do'stda e'tiqod?

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
qushim, so'yla, o'rtagan qay dard?  
Balki xushdir, balki u noxush,  
rahmat, qola bilmabsan loqayd.

Uzoqlarda chirqillar bir qush,  
bir dam keching rohatingizdan,  
madad so'rar balki boyaqish,  
madad so'rar, odamlar, bizdan...

\* \* \*

Dardlarin unutdilar,  
yig'lab bo'lgan bulutlar,  
so'ngra gullar, burgutlar  
uzra uchib o'tdilar...

Ochilib borar osmon,  
ko'nglim borar ochilib.  
Qoqigul boqar hayron  
kichkina quyosh bo'lib.

Toj kiyib alangadan,  
charaqlar gulisafsar:  
ketmoqda balandlarda  
yig'lab bo'lgan bulutlar.

Sening esa ko'nglingdan  
qachon ketar shubhalar?  
Men ishondim. Sen ishon:  
shubha o'tar, ishq qolar!..

\* \* \*

Nechun yana tushimga kirding,  
yodimni tark etmading nechun,  
dom-daraksiz yitmading nechun,  
nechun yana tushimga kirding?

Yodimni tark etmading nechun,  
hayotimdan ketding-ku axir,  
o'zgaga qo'l tutding-ku axir,  
yodimni tark etmading nechun?

Dom-daraksiz yitmading nechun,  
nahotki sen, nahot, bedardim,  
bo'lib qolding to abad dardim,  
dom-daraksiz yitmading nechun?

Nechun yana tushimga kirding,  
yorug' edi sen-la tunlarim,  
qaro bo'ldi sensiz kunlarim,  
nechun yana tushimga kirding?

Qismatimdan ketsang ham, nechun,  
tushlarimdan ketmaysan, sanam,  
yodimni tark etmaysan, sanam,  
qismatimdan ketsang ham, nechun?

## SHAMOL

*Shamol, bir ertak o'qi...*  
**Oybek**

Shivirlaydi shamol, ruhimga,  
afsonalar so'ylaydi shamol.  
Men botaman nogahon mungga,  
men qotaman nogahon savol:

“So'yla, shamol, so'yla, ey shamol,  
bilganingni aytgil beriyo,  
unutdimi meni oyjamol,  
o'zgani yor ayladimi yo?

Yo shiftdagi xushchaqchaq, suluv  
qaldirg'ochni ilon bo'g'dimi,  
qishdan omon chiqdimi suruv,  
serpusht targ'il yana tug'dimi?

Tongda ko'rib cho'ntagini qoq,  
otam boshi bo'ldimi yo xam,  
qurtga tutbarg ko'tarib nogoh,  
boshi og'rib qoldimi onam?

So'yla, nahot hech yetib bo'lmas,  
sevgilimning vaslisan, shamol,  
so'yla, axir, unutib bo'lmas,  
shamollarning naslisan, shamol.



Yodingdadir, har xoru zorga,  
suv keltirgan ul boboshamol?  
So'yla, qachon, erksiz diyorga,  
erk keltirgay dilrabo shamol?"

Shivirlaydi shamol, ruhimga,  
afsonalar so'ylaydi shamol.  
Men botaman nogahon mungga,  
va qotaman ketma-ket savol...

\* \* \*

Kuta-kuta toldim seni, ey, nur,  
qayg'ular kulmoqda ustimdan masrur,  
sabrinning sochlari oqardi, ay, hur,  
insofing bormi?

Orziqqan orzum ozdi – sen yo'qsan,  
umidim umidin uzdi – sen yo'qsan,  
to'zimim tirqirab to'zdi – sen yo'qsan,  
insofing bormi?

Chinorday chidamim chirs-chirs chiridi,  
ishonchim ividi, ishqim iridi,  
ahdim arazladi, qasdim qaridi,  
insofing bormi?

## SHOIR

Bu dunyoda shoir bir ohang,  
tinglang uni, aziz odamlar,  
shodlik berar qalbida jarang,  
jaranglaydi ruhida g'amlar.

Bulbul derlar shoirni, biroq,  
u kuylamas bulbulday takror.  
Bir gul emas, shoirni ko'proq,  
kuylatadi vatan va bahor.

U bir buyuk sevgi bilan mast,  
qahri qattiq uning ag'yorga,  
husni uchun vatanni sevmas,  
bahorni ham sevmas bekorga.

Yulduzlarga qo'ysa gar ko'ngil,  
yo'q emasdir buning boisi.  
Unga tole timsolidir – gul,  
mast qiladir uni erk isi.

U bir buyuk nafrat bilan mast,  
nomusini qo'ymas garovga.  
Nafsi uchun vatanni sotmas,  
shon-shuhrat deb yalinmas yovga.

O'ylamangkim, bular barchasi,  
shunchaki ishq, nafrat emas, yo'q,

sevsa, qalbi – quyosh parchasi,  
nafratlansa – satrlari o'q.

Munis ilhom oshino damlar,  
kechar uning yuragida jang.  
U kuylaydi sizni, odamlar,  
bu dunyoda shoir – bir ohang...

\* \* \*

It ko'ziga ko'zgu tut,  
tanimaydi o'zin it.  
O'zin o'zga ko'rar u,  
begona deb hurar u.

Suvda o'zin ko'rsa oy,  
taniy olmas, hoynahoy.  
Hurkib qochar yiroqqa,  
tanimay o'zin, yohu,  
agar zilol buloqda,  
aksini ko'rsa ohu.

Ko'zguda ko'rib o'zin,  
tanimas gul ham, hayhot.  
Ko'zguga boqib faqat,  
o'zin tanir odamzod.  
Do'st, niyating ezgu qil,  
ko'zgu bo'lay, ko'zgu bo'l...

\* \* \*

Shovullaydi poyimda daryo,  
tentiraydi chimzorda shamol,  
kimdir yig'lar qaydadir giryon –  
loqayd suzar samoda hilol.

Bir qush qilar betinim chah-chah,  
suvga so'ylar sirlarini tol,  
kimdir xushnud uradi qah-qah –  
loqayd suzar samoda hilol.

Yigit qizning qo'lin ushlaydi,  
vido aytar kampiriga chol,  
qirda toychoq yonib kishnaydi –  
loqayd suzar samoda hilol.

Qay bir tog'da otilar vulqon,  
qay bir yurtida go'daklar uvol,  
kular, yig'lar, xo'rsinar inson –  
loqayd suzar samoda hilol.

Singib ketar dengizga daryo,  
ko'z ochadi bir buloq – zilol,  
dunyo o'lar, tirilar dunyo –  
loqayd suzar samoda hilol.

Hilol, hilol, do'sting bo'laman,  
hech bo'lmasa savol bo'l, savol:  
– Nega keldim, nega o'laman? –  
loqayd suzar samoda hilol..

## TABIATNING DAFTARI

Bir daftarga o'xshaydi dunyo,  
turfa yozuvlarga to'la bir daftar:  
so'ngsiz bir jumladir osmon,  
yulduzlari – otashin so'zlar...  
Bir jumla oq,  
bir jumla qora,  
“kecha-kunduz” so'zlaridir bu.  
So'zlardir o'rmonlar,  
bog'lar so'zlardir...  
Kimlarga xitobdir bo'ychan daraxtlar?  
Maysalar kimlarga atalgan shivir?  
Kimga “To'xta!” degan nidodir tog'lar,  
o'tloqlar kim uchun zangori pichir?  
Nima deb nolalar qiladi,  
kuzakda o'zbekim bog'lari?  
Ne ma'no yashirin paxtazorlarda  
yoz chog'i,  
kuz chog'i,  
bahor chog'lari?  
Kimning ijodi bu rango-rang gullar,  
yulduzlar,  
buloqda qaynagan suvlar,  
qoyalar ustida turgan ohular,  
ne ma'no anglatar, oh, ular?  
Kimning ijodimiz bizlar, odamlar?  
Ey, o'qib yashaylik,  
yong'oq kabi chaqib yashaylik,

yozuvlarning mag'izlarini:  
gullar – shu tuproqning kulgilaridir;  
suvlar – ariqlarda mildir-mildir,  
daryolarda shildir-shildir,  
dengizlarda guldur-guldur,  
tabiatning tuyg'ularidir;  
dashtu cho'llar esa – uyqularidir;  
yigit chog'imizdir bizning – o'rmonlar,  
go'dak kezlarimiz maysalar bizning;  
tog'lar – g'ururimiz,  
shuurimiz – quyosh;  
ranglari o'zgarmas archalar –  
vatanga,  
tuproqqa muhabbatimiz;  
Odamlar, biz kimning xatimiz,  
kimga xatimiz?  
Men – o'tmishning orzuingdirman,  
orzui bo'lsaydim kelajakning ham,  
koshki meni o'qiy olsa navqiron nasl  
Muhabbat, Sadoqat so'ziday ul dam.  
Oh, shunday bir ma'no bermasang agar,  
nega kelding dunyoga, odam?  
Bu uzun,  
bu qisqa jumlalar aro,  
ayting, do'stlar, men qaysi so'zman?  
Koshki Baxt so'ziday o'qiy olsaydi  
ona xalqim,  
ona vatanim.

Koshki meni jahon xalqlari  
O'zbekiston farzandi deya  
hijjalamay, erkin o'qiy olsaydi,  
tabiatning o'chmas yozuvi kabi,  
tabiatning shu daftarida...

### SINGAN KO'NGIL

Jonona yuziday jonoqi olma,  
jonbaxsh ranglaridan qon olgan ko'nglim,  
lablari gulg'uncha, yonog'i olma,  
qizlar nigohidan jon olgan ko'nglim.

Hayhot, bir nomard do'st toshidan chil-chil,  
sinib yotar edi – bog' aro kuzning,  
mahzun yo'lagida ayanch va dardchil,  
pardoz ko'zguchasi kabi bir qizning.

Nega sinding, ko'nglim, kinlar, g'arazlar,  
nokaslar toshiga dosh topgan ko'nglim?  
Nega sinding, ko'nglim, ishqlar, arazlar,  
gullar orasidan tosh topgan ko'nglim?

Nega sinding, nega?  
Nomard do'st uchun  
omadlar tilagan, kuyungan ko'nglim?  
Ay, do'st qayg'usidan g'ijim va g'ijim,  
ay, do'st shodligidan suyungan ko'nglim?

Nega sinding, nega?

## NAVJUVON ONA

*O'zbekiston xalq rassomi*

Rahim Ahmedovga

Oydin bir kechada,  
oyni ostida,  
majnun to'lni chiqor-chiqor soylari ichida,  
yashil dalalarning qoq o'rtasida,  
chorpoya ustida,  
parishon soch,  
yarim yalang'och  
tebranib o'tirar bir juvon,  
bosh ustida oqargan osmon,  
quchog'ida ma'suma go'dak...

Sochlarida mayin-mayin g'ivir laydi  
kecha shamoli,  
qulog'iga sirlarini shivir laydi  
kecha shamoli...

Juvonning sochlari – muattar,  
juvonning sochlari – rayhon,  
hidlab-hidlab to'ymaydi shamol,  
emib-emib go'dak to'ymaydi,  
juvonning ko'ksini.  
Etagiga to'kilar hilol,  
parcha-parcha tangalar misol,



barglarga urilib,  
barglarda sinib...

Shamolga rashk qilmay,  
rashk qilmay oyga,  
Shunday,  
momiq ko'rpa ichida,  
juvonning yonida  
pish-pish uxlab yotar bir odam,  
juvonga hamumr,  
hamsevgi,  
hamtaqdir odam...

Oydin bir kechada,  
oyning ostida,  
majnuntolning chipor-chipor soyalari ichida,  
yashil dalalarning qoq o'rtasida,  
chorpoya ustida,  
parishon soch,  
yarim yalang'och  
tebranib o'tirar bir juvon,  
sochlari rayhon juvon,  
quchog'ida ma'suma go'dak...

Ko'kda oy,  
yerda shamol,  
uzoq-uzoqlarda tog'lar,  
yonida majnuntol

oshifta-oshifta boqadi...  
Ular o'rtasida juvon  
Vatanimga o'xshab ketadi...  
Oppoq siynasini durkun bir go'dak,  
ko'zi qora,  
qoshi kamalak –  
yutoqib-yutoqib emar KELAJAK...

\* \* \*

Beshikka kirdimu bir opa-singil,  
beshigim tebratdi basma-bas, yengil.

Opasi allalab desa: "Bo'l mag'rur!"  
singlisi jo'r bo'ldi: "Kamtar bo'lib yur!"

Xoh kechu xoh sahar, xoh yoz, xoh qishda,  
ruhimga shivirlar ikki farishta:

– Qadding g'oz tutib yur, – desa Oriyat,  
– Boshing egibroq yur, – deb turtar Uyat...

## KUZ ERTAGI

Shamollarning harir qanotlarida  
ucha-ucha tolgan kapalak kabi  
bir nimjon yaproqqa  
borib tushdi kuz.

Keyin...  
ariqlarda suvni,  
chanoqlarda paxtani qaynatib,  
sut kabi toshirgan  
yoz ila jangda,  
o'tli nafasida yantoqlarni yoqib,  
qiyratib,  
giloslarni pishirgan  
yoz ila jangda,  
olisha-olisha,  
kuchdan qolib yutqazgan  
pahlavonday beiloj,  
zil ketib,  
izmini topshirgan,  
yoz ila jangda  
bir qartaygan daraxt uzra  
horib tushdi kuz.

So'ng yalina-yalina  
bir tomosha ko'rgilik,  
bir muzqaymoq yegulik

tanga topib olgan boladay xushhol  
yon-veriga boqib oldi jim;  
so'ng olis harbdan  
qutulib qaytgan  
o'g'lin ko'rib,  
sevinganidan,  
yig'lagan onaday qisqa va behol,  
uch-to'rt tomchi to'kib oldi jim;  
Keyin...  
besh million paxtani terib,  
beqasam to'n ustidan  
shohi qiyiqni sirib,  
biroz kamtar,  
biroz... ko'krakni kerib,  
qurultoy minbariga chiqqan bobodehqonday  
so'ngsiz paxtazorlar uzra  
g'olib tushdi kuz.

Shamollarning harir qanotlarida  
olmalar,  
uzumlar,  
behilar uchun  
yetilgan qizlarni malol qilgulik,  
bir chiroy,  
bir husn ato etgali  
quyoshning beomon saxiy kaftidan  
Prometey kabi,  
olovni emas,

tillaning rangini  
olib tushdi kuz.

Keyin shamollarning harir qanotlarida,  
“oq oltin” yuklagan zo‘r karvonlarning,  
Sharqu G‘arb yo‘llari qadarli uzun;  
ummon osha jahon insonlarining  
Anjela Devisga – erktalab qizga  
uzatgan qo‘llari qadarli uzun;  
diyorlarni tutashtirgan otashin bir ishq –  
Gazli-Ural quvurlari qadarli yiroq;  
XX asr fazo kemalarining,  
iqbol sari ochgan yo‘llari qadar porloq  
va qutlug‘ mezonlardan  
son-sanoqsiz yo‘llar  
solib tushdi kuz.

Keyin shamollarning harir qanotlarida,  
mevasi g‘arq pishgan bog‘lar ustiga,  
vodiylar,  
zirvalar,  
tog‘lar ustiga  
cho‘g‘langan qushlarday  
yonib tushdi kuz.

So‘ng ko‘kda bulutga aylanib,  
dalalar,  
bo‘g‘otlar va gullar uzra,  
sumbula suvida ko‘zgoday

o'z husniga mahliyo boqib,  
o'yga cho'mib turgan sohillar uzra;  
dehqonning boshiga,  
kaftiga,  
ko'ngliga  
va o'zining za'far rangiga,  
yomg'ir bo'lib  
yog'ib tushdi kuz.

Keyin... dekabrning ko'r oydinida,  
gujum daraxtining qay bir shoxida,  
so'nggi umid yanglig' ojiz cho'g'lanib,  
ilinjsiz osilib turgan  
bir za'faron yaproq shaklida  
bir tomchi ko'zyoshday  
qishning muzli,  
oq siynasiga  
oqib tushdi KUZ...

\* \* \*

Bitiklar bor zanjirlarda, kishanlarda,  
jallodlarning kundasida, devorlarda,  
zindonlarda, tangalarda, nishonlarda,  
bitiklar bor qilichlarda va dorlarda...

Bobolarim yozib ketmish e'tiqodin,  
or-nomusin, bu dunyoga qarashlarin,  
yozib ketmish qahqahasi ham faryodin,  
yozib ketmish maydon ichra kurashlarin.

Bobolarim qoni olov – or olovi,  
bobolarim qoni isyon – erk isyoni.  
Bobolarim qoni yalov – erk yalovi,  
tomirlarim ichra bormi ular qoni?

Men turibman chorrahada oyoqyalang,  
bu chorraha menga sinov chorrahasi.  
Ko'zim boqar chor tarafga alang-jalang,  
menga hayron bu dunyoning chor dahasi:

“Bolam, sen shu bobolarga bolamisan?  
Unda nechun qoning sovuq, qaynamaysan?  
O'z ichingga qamalgan bir nolamisan,  
nechun katta maydonlarda o'ynamaysan?..”

\* \* \*

*Uxla, uxla xotirjam...*

Fayyod Xamis

Uxla, jonim, uxla, go'zalim, uxla,  
yer uxlar, ko'k uxlar, uxlar bor jahon.  
Oppog'im, tantig'im, asalim, uxla,  
shamollar uxladi, uxladi bo'ron.

Nechuk bezovtasan, nechun kulmaysan,  
salgina aytishdik, shunga shunchami?  
Uxla, tushlaringda zora jilmaysang,  
zora unutolsang tilla g'unchani...

Qo'y, ochma arazlar tugunchasini,  
uxla, tushlaringga kirib borayin.  
Olib beray gulning eng injasini,  
aytgan ziragingni olib berayin.

Qo'sh-qo'sh uzuklarni barmoqlaringga,  
zebigardonlarni ko'ksingga taqay.  
Tillag'uncha qaday turmaklaringga,  
sen baxtli bo'lsang, bas, jonimni qoqay.

Uxla, jonim, uxla, xo'rsinma ortiq,  
nachora, emasman men toju taxtli.  
Tushingda albatta qilarman tortiq,  
tushingda albatta qilarman baxtli.



Bu dunyo keng erur, jonginam, kengga,  
uyqu – bir saltanat, ko'p saxiy dargoh.  
Balki nasib etar tushingda senga,  
bir umr armoning bo'lgan u matoh.

Uxla, jonim, uxla, tinch bo'lsin tushing,  
ins uxlar, jin uxlar, uxlar pari, dev.  
Hech bo'lmasa meni tushingda tushun,  
hech bo'lmasa meni tushlaringda sev...

\* \* \*

Qorayib, o'rtanib yalang'och daraxt,  
mung'ayib turadi hayron va karaxt.

So'ngra... yomg'irlarda ko'pchib po'stlog'i,  
bahorga otlanar, ammo oyog'i...

Oyog'ini qurshab yotar barglari –  
yashnoq kunlarining xotiralari...

\* \* \*

Tashrif. Dunyoga kelmoqdek muhim,  
Chinnigul. Tramvay. Xushnavo yomg'ir.  
Ko'k eshik. Mis tutqich. Qo'ng'iroq: "Keldim",  
Parket. Qadamlar. "Senmi? Qani kir".

Ko'zlarda tuyg'ular chaqini. UZR,  
Kipriklarga qalqqan inju – baxt.  
Toshoyna. Suhbatlar. Qandillar. Billur,  
Qariya. Oq guldon. Teleekran. "Vaqt".

Albom. Xotiralar. Dimiqqan. Mahtal,  
Ko'zlar. Orqasida muqaddas yozuv.  
Qora tamal toshda oq marmar haykal –  
Bolalik yodini yoritgan orzu.

Beqaror fikrlar bo'roni. Undan,  
Ajrati olindi nihoyat hislar.  
So'nggi quchish. Zina. So'nggi tramvay,  
Yomg'irning simiga osiq fonuslar...

Qaytish. Dunyodan ketmoqdek og'ir...

\* \* \*

Oy dumalab yurgan chog'larda,  
bog'lar – sokin, oydin bir g'azal –  
shuning uchun doim bog'larga,  
ochiq turar mening derazam.

Haydab xonam sukutin, har dam,  
hislarimga soladi larza –  
shuning uchun yomg'irlarga ham,  
ochiq turar mening derazam.

Shaddod qizday urib qahqaha,  
kirib kelar mastona tarzda –  
shuning uchun tongga ham har gal  
ochiq turar mening derazam.

Yangi-yangi xushbo'y hidlarga,  
xonam va ko'nglimni to'lg'azar –  
shuning uchun shabbodalarga,  
ochiq turar mening derazam.

\* \* \*

– *Ada, nega uxlamayapsiz?*

**Nozimning savoli**

O'g'lim, men uxlamayman, yulduzlar uxlaganda,  
daraxtlar uxlaganda, ildizlar uxlaganda...

Qandoq uxlay men axir, gullar uyg'oq tursalar,  
qandoq uxlay olmalar bog'da kezib yursalar?

Hilol olis samoda uyg'oq tursa yarqirab,  
suvlar ham oqib yotsa umr kabi sharqirab?

Qandoq uxlay, jon bolam, buzg'unlar uyg'oq bo'lsa,  
tog'da burgut, sahroda quzg'unlar uyg'oq bo'lsa?

Alpomish, Go'ro'g'lilar ertakda tin olsalar,  
oqillar mis, nodonlar yombi oltin olsalar?

O'g'lim, uxlab bo'larmi, uyg'oq bo'lsa xiyonat,  
uxlab yotsa adolat, uxlab yotsa diyonat?

Yumuq bo'lsa bu ona sayyorada erk ko'zi,  
chiqib tursa yovuzlik og'zidan urush so'zi?

Qandoq uxlay, jon o'g'lim, men – odamlar diliman,  
ezgulik, haqiqatning kesilmagan tiliman!..

Axir uxlab bo'larmi, uxlasa inson agar,  
uxlasa insof agar, uxlasa vijdon agar?!

Uxlamayman, faqat shu – mening uchun tanho yo'l,  
agar men uxlab qolsam, sen albatta uyg'oq bo'l!

## **O'ZBEKISTONIM**

*Faxriya*

Ey, sen, jannatsifat diyorim manim,  
Olloh kalimasi shiorim manim,  
kofirga yo'ymasin ahli din, magar,  
seni Baytulloh deb atasam agar,  
Makkadan ziyodat bilib men seni,  
desam: sajdagohim, qiblam, imonim,  
Makkayu Madinam – O'zbekistonim!

Agar men, agar men bir oshiq bo'lsam,  
ishqdan yurak-bag'ri ming yashiq bo'lsam,  
el aro olsam yo Majnun degan ot,  
yo bersa menga o'z ismini Farhod,  
G'aribday ishq aro kuya olsam yo,  
Tohirday o'rtanib suya olsam yo,  
men seni suyardim, suyuqlim, jonim,  
Layliyu Shirinim – O'zbekistonim!

Agar men, agar men gado bo'lsaydim,  
makonda lomakon – ado bo'lsaydim,  
tilagan makonim sen bo'lar eding,  
tilagan jahonim sen bo'lar eding,  
faqat sen bo'larding tilagan johim,  
faqat sen bo'larding pushtim, panohim,  
Ochildasturxonim, tanti mezbonim,  
rizq-ro'zim, davlatim – O'zbekistonim!

Agar men, agar men jahongir bo'lsam,  
Temurday bir qodir bahodir bo'lsam,  
aylab yovlaringni butkul lojaram,  
qilar edim seni o'zimga qaram,  
manim oltin yurtim, nurafshon yurtim,  
manim zargar yurtim, zarafshon yurtim,  
Buxoro, Samarqand ham Andijonim,  
Sayhunim, Jayhunim – O'zbekistonim!

Na chora, men oddiy shoir o'g'lingman,  
ko'nglingman, ko'zingman, o'lmas tilingman,  
sening dil toringdan sadoman, yurtim,  
oshiqi adoman, gadoman, yurtim,  
jahongir jangchiman, qurolim – qalam,  
dindorman, sen – jannat, sensan – musallam,  
yorim, e'tiqodim, boyligim, nonim,  
onam, onajonim – O'zbekistonim!

### UCHINCHI QIZ

Qirol Lir, otaxon, nima jin urdi,  
ishonching qolmabdi odam zotiga!  
Kim Shodlik arshidan seni tushirdi,  
kim seni mindirdi g'azab otiga?

Sen uni oq qilding! Nega oq qilding?  
Razolat chohiga tushding yuz tuban!  
Qabohat qa'riga toyding, yiqilding,  
nahot telbalik ham qismating ekan?!

Yolvorma, bas, falak chaqmoqlariga,  
sig'inma tuproqqa, ko'kka, yulduzga.  
Ishonma bu dunyo aldoqlariga,  
sen ishon, sen sig'in uchinchi qizga!

Diling to'ng'ichingga ortiq ishondi,  
holbuki, u seni aldagan edi!  
O'rtanchang ham bisot dardida yondi,  
U ham seni avrab "Sevaman!" dedi.

Ammo uchinchi qiz, seni, otaxon,  
chindan sevar edi, uning sevgisi,  
riyo emas edi, emasdi yolg'on,  
yo'q edi so'zida soxtalik isi...

Gaplari poyma-poy, sodda, bepardoz,  
lablari kuyunib titrardi faqat,

faqat rost soʻzlarni soʻzlardi, xolos,  
haqiqat edi u – tirik haqiqat!

Lekin u havoyi maqtovlar aro  
oʻzda yoʻq taltayib uchib yurgan dil –  
yogʻdusiz tun edi, yulduzsiz samo!  
Sen unga sigʻmading, sigʻmading, singil!

Kechirding bir dunyo koʻrguliklarni:  
har ishing adolat timsoli boʻldi.  
(Shu sabab men barcha ezguliklarni,  
“Uchinchi qiz” deya atagim keldi.)

Oh, seni tanimay oʻtdi bir umr,  
riyolar qoʻynida aldangan ul ruh.  
Uchinchi qiz – chaqmoq, uchinchi qiz – nur,  
uchinchi qiz, sensiz bu hayot majruh!

Uchinchi qiz, nechun u zulmat dunyo,  
haqiqat nuridan seni qismadi?  
Nahotki hamisha gʻolibdir riyo,  
quvgʻindir – uchinchi qizlar qismati?

Uchinchi qiz – yogʻdu! Ruhimiz – nurdan,  
mahrum boʻlganida mehrdan koʻzlar! –  
Koshkiydi shunday payt tugʻilsa birdan,  
haqiqat shuʻlasi – uchinchi qizlar!



Uchinchi qiz – mardlik! Dil ojiz qolsa,  
bir nohaq hukmdan qiynalsa hislar, –  
shunday payt koshkiydi madadga kelsa,  
haqiqat so'zlari – uchinchi qizlar!

Uchinchi qiz – sevgi! Bizni razolat,  
halok etmoq bo'lgan tangu tor kezlar,  
xalos eta olgay berib kafolat,  
adolat hislari uchinchi qizlar!

Uchinchi qiz – jur'at, jasorat, yolg'in!  
Chalg'itgan choqlarda bizlarni yolg'on,  
haqiqatni ro'y-rost aytmqlik uchun  
uchinchi qizimiz bo'lsin har qachon!

## YOLG'IZLIK

Yolg'iz edim, tutdim shunday sadoni:  
“Yolg'izlik o'rtamas yolg'iz Xudoni...”

Ey ahli jaholat, ey ahli g'ino,  
sizning orangizda toq o'tdi Sino.

Ne ajab, adovat zulmati aro,  
Navoiy sha'm edi yolg'iz, g'amsaro.

Yolg'izlar, boqmangiz olamga tushkun,  
yolg'iz edi hasad, kin ichra Pushkin.

Tiriklikda hech kim qo'shmadi safga,  
ichdi yolg'izlikning og'usin Kafka.

Tuhmat ham, g'araz ham ko'p edi, illo,  
yolg'iz edi, do'stlar, Habib Abdullo.

Ne holki, Cho'lpon ham toq yulduz edi,  
yolg'iz Qodiriyni yolg'izlik yedi!

E'tibordan xoli chaqnagan umr –  
yolg'iz yonib, yolg'iz o'chdi Mirtemir.

Begunoh, besharaf, beshon, benasim,  
bee'tibor ketdi Mirkarim Osim.

Oh, mening ko'ksimni kuydirar alam,  
Shukur Burhonni ham yedi yolg'iz g'am...

Bas, bu kun tuzmishlar barcha beguruh,  
benazir, beqadr zotlar bir guruh.

Boiskim, ularni tiriklik chog'i,  
beomon o'rtamish yolg'izlik dog'i.

Ulardan oldim men ushbu nidoni:  
"Yolg'izlik o'rtamas yolg'iz Xudoni..."

### **MADINANING QOFIYALI SAVOLLARIGA JAVOB**

- Ada, nima bo'ladi odam  
yo'lini yo'qotsa?
- Fojia.
- Ada, nima bo'ladi odam  
tilini yo'qotsa?
- Fojia.
- Dilini yo'qotsa-chi?
- Fojia.
- Elini yo'qotsa-chi?
- Fojia.
- Voy, hammasi fojia!  
Fojiangiz u nima o'zi?
- Olamdagi hamma yo'qolgan  
narsalarning o'rni u, qizim.

## SARBADORLAR QO'SHIG'I

Samarqand soyida toshlar yo'q,  
oy yig'lar, ko'zida yoshlar yo'q,  
dorlar bor, munosib boshlar yo'q...

Bu zulmat zamonda nur edik,  
Hurriyat, udumga kir, dedik,  
hur keldik, ketaylik hur, dedik...

Silq, desak, oydan nur silqmadi,  
balq, desak, quyosh ham balqmadi,  
qalq, desak, xaloyiq qalqmadi...

Bosmadik, bizlarni bosdilar,  
ezmadik, bizlarni ezdilar,  
osmadik, bizlarni osdilar.

Jahonda har yorning yori bor,  
yori bor har jonning ori bor,  
ori bor har jonning dori bor...

Birubor ishongan yor bo'ldi,  
e'tiqod biz uchun dor bo'ldi,  
dor bizga Erk bo'ldi, Or bo'ldi!..

Shu bois keksayu yoshimiz,  
baxsh etdik dorga o'z boshimiz.  
Qanday hur sollanar loshimiz!..

Ay, naslim, yeganing osh bo'lsin,  
yosh boshing tik bo'lsin, tosh bo'lsin,  
bosh dorga munosib bosh bo'lsin!..

\* \* \*

Ohimni ich, vohimni ich, volamni ich,  
yuraklarni vayron qilgan jolamni ich,  
fig'onlarni fig'on etgan nolamni ich,  
jonim zamon, ichib-ichib to'y endi,  
menga ortiq sitamingni qo'y endi.

Omi ko'pmi olamingda, olim ko'pmi?  
Shod holatim yoxud noshod holim ko'pmi?  
Ot ustida halim ko'pmi, zolim ko'pmi?  
Zolimlaring ko'zlarini o'y endi,  
zamon, menga sitamingni qo'y endi.

Hurlik istab, xo'r bo'ldim-u, hur bo'lmadim,  
terga botib durlar terdim, dur olmadim,  
shuurlarga nurlar berdim, nur olmadim,  
shudir menga tekkan fe'lu xo'y endi,  
zamon, menga sitamingni qo'y endi.

Haqni aytib, duchor bo'ldim tig'ingga men,  
qahratonda isinmadim cho'g'ingga men,  
gunohimmi, sig'inmasam tug'ingga men,  
gunohlarim savoblarga yo'y endi,  
zamon, menga sitamingni qo'y endi.

Tazyiqlaring toqatimni kemirdi-ku,  
tahsillaring toatimni yemirdi-ku,  
qayg'ularim qahringni yeb semirdi-ku,

semirgan shu qayg'umni ol, so'y endi,  
zamon, menga sitamingni qo'y endi.

Uzlatu g'am zindonidan chiqay men ham,  
el qalbida ezgu o'tlar yoqay men ham,  
dunyo ko'rib, bu dunyoni uqay men ham,  
bo'lsin bizning kulbada ham to'y endi,  
zamon, menga sitamingni qo'y endi...

\* \* \*

Daryo shaffof edi, ufq sof edi.  
Dunyo jannat edi. Jannat lof edi.  
Quyosh saxiy edi, noinsof edi,  
meni tashlab, necha botiblar ketdi,  
rayhon hidi meni tashlab ketmadi.

Qushlar dilim ovlab sayrovchi bo'ldi,  
ko'nglim chah-chahlardan yayrovchi bo'ldi,  
ammo bu chah-chahlar chayqovchi bo'ldi,  
olamni sukutga sotiblar ketdi,  
rayhon hidi meni tashlab ketmadi.

Daryo asov ekan, ko'p otqin ekan,  
o'zin qirg'og'iga u tutqun ekan,  
bahor jilvalari, oh, sotqin ekan,  
bildirmay kuz tomon o'tiblar ketdi,  
rayhon hidi meni tashlab ketmadi.

Goho unutildim, goho unutildim,  
kimnidir kutdirdim, kimnidir kutdim,  
dunyo mendan o'tdi, men undan o'tdim,  
diydalarim toshday qotiblar ketdi,  
rayhon hidi meni tashlab ketmadi.

Goh qochib javobdan, gohi savoldan,  
umr tulpori ham toymoqda holdan,  
o'zing asra, Tangrim, bevaqt zavoldan,  
onam qulog'iga qistirgan bir to'p,  
rayhon hidi meni tashlab ketmadi...

\* \* \*

Ay, Sulaymon, Xudo bersa, Xudo degil,  
g'ashlik qilib, itlar hursa, Xudo degil,  
tushlaringga Xudo kirsa, Xudo degil,  
Xudosizni Xudo ursa, Xudo degil.

Xudo bersa, hovliqma hech, gupurma hech,  
zolimlarga zolimlarcha gapirma hech,  
vatan bo'lmish bu tuproqqa tupurma hech,  
ko'rlik qilsang, Xudo degil, Xudo degil.

Vatan bizga Xudo bergan ehson axir,  
yovga berib bo'lmas uni – bizga mahr,  
qiyomatda buning ajri behad taxir,  
zorlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Bir yurakda ishq yasholmas zillat bilan,  
poklik turmas bir ko'ngilda illat bilan,  
millatingda yo'ldan ozgan millat bilan  
birlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Ezgulikka chorla doim bo'lib surchi,  
nasling pok et, o'z-o'zingdan ko'pay, urchi,  
Xudo – odil, jazo bermoq uning burchi,  
xo'rlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Xudo degil, so'zing yovga xanjar bo'lgay,  
Xudo degil, ichingdagi ajdar o'lgay,



Xudo degil, insof o'zi tojdor bo'lgay,  
hurlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Lafzing halol, luqmangni ham halol yegil,  
mushtga musht bo'l, tikilganga sen ham tikil,  
nohaqqa hech bo'yin egma, haqqa egil,  
zo'rlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Qachon yiqib nafs atalmish koshonangni,  
haqiqatga aylantirib afsonangni,  
gunoh tegib, qaro bo'lgan peshonangni,  
nurlik ko'rsang, Xudo degil, Xudo degil.

Xudosizni Xudo ursa, Xudo degil,  
ay, Sulaymon, Xudo bersa, Xudo degil...

## **BAHOVUDDIN NAQSHBAND:**

“Xudoga dil bering. Xudoni seving,  
Xudoni sevganlar odamni sevar.  
Xudoni sevganlar olamni sevar,  
Xudoga dil bering. Xudoni seving.

Oltinga dil bermang, pulga dil bermang,  
dil bermang tuproqqa. Dil bermang toshga.  
Dil bermang g'uncha lab har qalam qoshga,  
qasru saroy, bog'u gulga dil bermang.

Dil bermang shaytoniy raqsu navoga,  
dil bermang hasadu kibru havoga.  
Dil bermang har jodu, har noravoga,  
Xudoga dil bering, Xudoni seving.

Xudoni sevganlar borini sevar,  
ota-ona, farzand, yorini sevar.  
Mansabu martaba – ishga dil bermang,  
dil bermang nafsgayu izzat-ikromga.  
Dil bermang ishratu qimoru jomga,  
otgayu itgayu qushga dil bermang.

Ma'yuslik, sho'xlik ham Xudonikidir,  
ochlik ham, to'qlik ham Xudonikidir.  
Borliq ham, yo'qliq ham Xudonikidir,  
Xudoga dil bering. Xudoni seving.

Xudoga dil bering. Xudoni seving,  
Xudoni sevganlar chamanni sevar.  
Tuproqni, millatni, vatanni sevar,  
Xudoga dil bering. Xudoni seving...”

### **KUBRO:**

“Yulduzlar sonini faqat U bilar,  
olamlar sonini U bilar yolg'iz.  
Biz unga yuz bursak, U bizga kelar,  
Undan yuz bursak ham, burmagay U yuz.

Dunyoni idora qilguvchi O'zi,  
O'zi – rizq berguvchi, hayot berguvchi.  
Tog'lar og'irligin bilguvchi O'zi,  
O'zi – jon berguvchi, mamot berguvchi.

Dunyodan ulug' U, borliqdan katta,  
zavoldan xolidir, kufrdan pokdir.  
Fozildir, mutlaqdir ilmu hikmatda,  
vujudga jondir U, jonga – idrokdir.

Yolg'izdir, o'xshashi, sherigi yo'qdir,  
otasi yo'q Uning, yo'qdir onasi.  
Inson ibodati – unga oziqdir,  
bu dunyo – Uning bir imtihonasi.

Olamni yaratdi yo'qdan, guvohsiz,  
tuproqqa jon berdi – jonni qarz qildi.  
Dunyodan dil uzib mamnun, evohsiz,  
ko'z yumib ketmoqni bizga farz qildi.

Bizlar shakkoklarmiz, gunohkorlarmiz,  
kim mol deb, kim ishq ruoshkda yonadir.  
Biz – nafsga sig'ingan xoru zorlarmiz,  
bu dunyo – biz uchun sinovxonadir.

Oqil – oxiratga, johil – dunyoga,  
mayxo'rlar safoga talpinar faqat.  
Kim imon keltirsa yolg'iz Ollohga,  
u bo'lgay mukarram sohibi jannat.

Ollohga itoat rizq bergay bizga,  
qo'shgay umrimizga umru barakat.  
Ro'z bergay, botiniy ko'z bergay bizga,  
Uning diydori deb qilsak harakat...

Uning fazli – jannat, adli – do'zaxdir,  
solih bandasiga rahmati – ukpar.  
U kuf ru gunohdan behad yuksakdir,  
Ollohu Akbardir, Ollohu Akbar!..”

## **BOYAZID BASTOMIY:**

### **1**

“O‘zim o‘z fe‘linga ta‘mirchi bo‘ldim,  
o‘n ikki nafsimga temirchi bo‘ldim.

Nafsim temirini sabru riyozat,  
ko‘rasiga soldim, so‘ng esa hayot.

O‘tida qizdirdim, so‘ngra alomat,  
xorlik sandoniga qo‘yib, malomat.

Bolg‘asida urdim, to undan silliq,  
bir oyna yaralib, sochguncha yallig‘.

Amri ilohiyni bildimu men farz,  
o‘zimdan bir ko‘zgu yasadim shu tarz.

Bahridan o‘tdim-da may ila xumning,  
ko‘zgusi bo‘ldim men o‘z vujudimning.

Necha turli toat-ibodat ila,  
farmoni oliyga itoat ila,

Berdim ul oynaga sayqalu pardoz,  
baribir gard qoldi ko‘zguda biroz.

Shunda bor kuchimni yig‘ib ko‘zimga,  
e‘tibor nigohin burdim o‘zimga.

Ko'rdimki, qa'rimda sirli surur bor,  
toat, e'tiqoddan kibru g'urur bor.

Qisqasi, o'zimdanda ko'p xursand edim,  
ibodatda g'oyat xudpisand edim.

Manmanlik va kibr meni to mahshar  
chirmagan bir chilvir – zunnorga o'xshar...

Yana besh yil qattiq jiddu jahd ila,  
ichki bir intizom, ichki ahd ila.

Zunnorni ham uzdim, pok imon bo'ldim,  
el aro yolg'iz men tirik jon bo'ldim.

Xalq o'ldi, bosh urib darvozasiga,  
men bordim har birin janozasiga.

Har birin ruhiga tilovat qildim,  
tilovat qilmoqni halovat bildim..."

2

“Yo meni Xudodan tilab ol, ona,  
yo meni Xudoga beraqol, ona...”

Garchi qo'sh ko'zim bor – bir holni ko'rdim,  
garchi oyog'im juft – bir yo'lda yurdim.

Bir ishni qiladir har ikki qo'lim,  
bir zotni tilaydir birgina tilim.

Bir so'zni eshitar ikki qulog'im,  
Ollohim bir mening, birdir ilohim.

Dilim – bir, ikkiga bo'la olmasman,  
ikki zot xizmatin qila olmasman.

Ham sening, ham Uning izmida bo'lmoq –  
Yeru Osmon aro muallaq qolmoq...

Yo meni Xudodan tilab ol, ona,  
yo meni Xudoga beraqol, ona...”

### FITRAT:

“Biz qanday bir mash’um manzilga yetdik,  
kunlar kuyib yotar, tunlar – kuyundi.  
Kulfatlar uyma-uy izg’iydi itdek,  
gar obid kuyindi, zobit – suyundi.

Ohista-ohista zabtiga olib,  
haq degan kimsani ezar iskanja.  
Oqil bandalarni kaftiga olib,  
mijig’lay boshlaydi bir temir panja.

Qatag’on qamchisi chiyillar chunon,  
diyonat qon qusib tushar yuztuban.  
Hadik va jaholat – qo’sh boshli ilon,  
Xudo deganlarga bichadi kafan.

Aybsiz e’tiqodga ayb taqar tuhmat,  
adolat bu ranju sitamdan ranjir.  
Obid zahmat olar, zobitlar – rag’bat,  
itoat toatga uradi zanjir.

Bag’irni mushukday timdalar anduh,  
nahotki tosh bo’lsa barcha bag’irlar?  
Nahot Toshiyurakka sololmas chandiq,  
tunlari chirqirab chiqqan sag’irlar?

Nahotki, shu sitam ichra ham, shoir,  
ko’zingga ko’rinsa gul, bulbul, chaman?  
Mening ko’ksim ezar darz ketgan dayr,  
yetimlar ohidan silkingan vatan...”



## **ABDULLA QODIRIY:**

“Yetdim deganimda dunyo mag‘ziga,  
boshimdan mag‘zava ag‘dardi riyo.  
Tiqli ajdahoning qonli og‘ziga,  
meni men ishongan ul ahli ziyo...

Non izlab izg‘ir el do‘konma-do‘kon,  
don izlab izg‘ir el bozorma-bozor.  
Oqibat axtarib sarsondir inson,  
men esa sarsonman topolmay mozor.

Zamona itqitgan tashlandiq vijdon,  
pashshaga talanar axlatxonada.  
Diyonat – pajmurda, majruh, chalajon,  
hibsda saqlanar maxsus zonada...

Yaltoqlar zol, qattol nazar ostida  
zolimga shukrona aytdilar, ko‘rdim.  
Tazyiqlar, qiynoqlar, ozor ostida  
odamlar Xudodan qaytdilar, ko‘rdim...

Men olqish aytmadim zolim zamonga,  
qaytmadim Tangrim haq qilgan yo‘limdan.  
Xiyonat qilmadim dinu imonga,  
qo‘rqdilar, qo‘rqmadim zulmu o‘limdan...

Neki jafu ko‘rdim, ne illat ko‘rdim,  
qahrim asramadim temir sandiqda.

Men o‘z timsolimda bir millat ko‘rdim,  
qon ko‘rdim qamchidan qolgan chandiqda.

Yovga sochdim zahrim satrlar aro,  
to‘kdim oq qog‘ozga shikoyatlarni.  
Saboq bo‘lsin uchun elimga, “qaro”  
moziydan keltirdim hikoyatlarni.

O‘zbekim, qalbingga muqaddas urug‘ –  
millat muhabbati urug‘in tikdim.  
Jallodlar yelkamga qadaganda o‘q,  
go‘zal bir jannatni ko‘rib, entikdim...

Men tikkan bu bog‘ni so‘ldirolmaslar,  
kesib olsalar ham agar tegimni.  
Mening Kumushimni o‘ldirolmaslar,  
o‘ldira olmaslar Otabegimni...”

### **ASQAR QOSIM:**

“Olamni uyg’otar asta tong nuri,  
ruhimda uyg’onar qushlar chug’uri.  
Ko’nglim hasratlarin shabnamga chayar,  
shabnamli gulbarglar asta jilmayar,

Men bu dunyosini ko’shk deb keluvdim.

Samoda yulduzlar o’char birma-bir,  
mening shuurimda o’chmaslar biroq.  
Tomirlarim ichra kezib yuradir,  
o’n to’rt kunlik hilol – ilohiy chiroq,

Men bu dunyosiga ishq deb keluvdim.

Hur-hur esib yurar unda shamollar,  
bunda-chi, oh, bunda qisar nafaslar.  
Quzg’unlar uchadir ko’kda bemalol,  
bulbulni band etmish yerda qafaslar,

Men bu dunyosini hur deb keluvdim.

Ortimdan o’tmishlar ergashar: vayron,  
tegramda o’rmalar tumanlar – kulfat.  
Osmondan tikilar osmon ham hayron,  
oldinda bir zulmat, ortda bir zulmat.

Men bu dunyosiga nur deb keluvdim.

Tafakkur mayini ichdimu nogoh,  
vujudim o’rtandi sohir gulxanda,

qismatim ayladi aqlimni ogoh,  
dunyoga kelibman tutqun vatanda,  
Men bu dunyosiga erk deb keluvdim.

Erk izlab, topmadim, endi netaman,  
ishq izlab, ishqimni kimga aytaman,  
nur izlab, nahotki nursiz o'taman?  
Men endi ketaman, qaytib ketaman.  
Dunyoga hayyu hayt aytib ketaman..."

\* \* \*

Yulduz sening nomingdir,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.  
Sen yulduzning nomisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.

Sen shomning oromisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.  
Sen oromning shomisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.

Sen jomning sharobisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.  
Sen sharobning jomisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.

Sen avomning erkisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a.  
Sen erkning avomisan,  
Cho'lpon, Cho'lpon, Cho'lpon-a...

## ADABIYOT NIMA?

Adabiyot nima? Juda jo'n savol,  
kim bilmas, axir u odobiyotdir.  
Bas, so'rab qoldingmi, endi quloq sol,  
u ruhdir, aqlidir, hisdir, hayotdir...

Qay ko'ngil agarda baytulazandir,  
bilki, u – shu ko'ngil shiftidagi sham.  
U – bashar yaratmish mulki mahzandir,  
sig'insang – Ka'ba u, simirsang – Zamzam.

U shunday hammomki, cho'milgan ko'ngil,  
ming qora bo'lmasin oq bo'lib chiqar.  
G'am ezgan yuraklar qush kabi yengil,  
ko'ngil – tog', dimog'lar chog' bo'lib chiqar.

U shunday daryoki, muqaddas, nodir,  
eng nopok dilni ham pok qilib yuvgay.  
U shunday shifobaxsh qutlug' olovdir,  
ruhdagi bor zulmu zulmatni quvgay.

U shunday bir bog'ki, semurg'lari bor,  
balodan qutqazar yozgancha qanot.  
Mushkuling hal etar unda Boychibor,  
unda murodingga yetkazar G'irotd.

Sen hali bilmaysan, bolam, hayotning  
Abul Havl yecholmas so'roqlari bor.

Yurtni yov bosganda, adabiyotning  
senga yo'l ko'rsatar Shiroqlari bor.

U shunday bir yo'lki, nomi – Diyonat,  
u shunday bir uyki, Vijdondir oti.  
Bir qo'lki, bergani – elga ionat,  
bir bolki, tilingni tilkalar toti...

U buyuk oshiqdir, ishqdan dars berar,  
yengilmas botir u – boshlaydi jangga.  
Ustozdir, xalq ichra yetaklab kirar,  
u Vatan neligin o'rgatar sanga...

\* \* \*

Istaklarim doim balandparvoz bo'ldi,  
janglar qildim, orzularim sarboz bo'ldi,  
jang maydoni faqat oppoq qog'oz bo'ldi,  
men bu oppoq qog'ozlarni tarqatmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim...

Bir sham bo'lib ezgu ezgin nurlar sochdim,  
shuhrat degan kasofatdan nari qochdim,  
mo'minlikka, xoksorlikka bag'rim ochdim,  
Ollohimga imonimni yo'qotmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim.

Jaholatning jabridan ko'p jafo tuydim,  
razolatning makridan ham rosa to'ydim,  
adolatni bir qiz kabi jondan suydim,  
suv ichgan o'z bulog'imni loyqatmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim.

Yolg'on ichdim, umr bo'yi yolg'on ichdim,  
katta-kichik mansablardan she'r deb kechdim,  
yovuzlikni yanchaman deb o'zni yanchdim,  
lekin dinu diyonatga o'q otmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim.

Sen malomat gulxanini yoqma, bolam,  
yo'q yerdagi gunohlarni taqma, bolam,  
bir xoinga boqqan kabi boqma, bolam,

vijdonimga xilof biror bayt aytmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim.

Och bo'lsam-da, sir bermadim, to'qday o'tdim,  
bor bo'lsam-da, ko'rinmadim, yo'qday o'tdim,  
balki noshud mergan otgan o'qday o'tdim?  
Sokin zamon dengizini chayqatmadim,  
olam meni payqamadi, payqatmadim...

\* \* \*

Laylo yuzli, laylo ko'zli, layloginam,  
yo'llarimda paydo bo'lgan paydoginam,  
she'rlaringa shaydo bo'lgan shaydoginam,  
she'rlarimning shaydosiga shaydo bo'ldim.

Shaydo bo'ldim, laylo ko'zga boqolmadim,  
sochlaringga sochpopuklar taqolmadim,  
imolaring ma'nosini uqolmadim,  
og'rimagan boshingga bir savdo bo'ldim.

Shaydo bo'lding, yo'latmading, chetlatmading,  
betlarimni betlaringga betlatmading,  
sochlaringni silatmading, hidlatmading,  
sochlaringning savdosida ado bo'ldim.

Oh urmagan tilimda sen ohim bo'lding,  
manim osmon bu ko'nglimda mohim bo'lding,  
muhabbatda muruvvatsiz shohim bo'lding,  
men vaslingni tilab turgan gado bo'ldim...



\* \* \*

Sayrashlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
qarashlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
kurashlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
men – o'sha g'amginman, men o'sha – g'amgin.

Tanishlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
xonishlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
yonishlar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
Yen – o'sha yong'inman, men – o'sha yong'in.

Sultonlar o'zgardi, o'zgarmadim men,  
zamonlar o'zgardi, o'zgarmadim men,  
jahonlar o'zgardi, o'zgarmadim men,  
men – o'sha jahonman, men – o'sha jahon.

Shamollar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
a'mollar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
savollar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
men – o'sha savolman, men – o'sha savol.

Tavoblar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
savoblar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
javoblar o'zgardi, men o'zgarmadim,  
men – o'sha javobman, men – o'sha javob.

\* \* \*

Qaytar meni. To'xtat meni. Sovut meni,  
Hayda meni. Alda meni. Ovut meni.

Entiktirma. Hansiratma. To'liqtirma,  
Yaqinlatma. Yovuqtirma. Yo'liqtirma.

Esingni yig'. Hushingni yig'. Aqlli bo'l,  
Bu qing'ir yo'l, qorong'i yo'l, bu xato yo'l.

Muz labimga labing bosib muzlamagil,  
Mendagi yo'q o'tni mendan izlamagil...

Hovliqma ko'p, hali shunday sevgi kelar,  
Chaqqoqlari yuragingga chizar gullar.

Yer yo'qolar, osmon juda past bo'ladi,  
Qiybog'idan tuyg'ularing mast bo'ladi.

Parvo qilmay sening barcha parvoyingga,  
Oyni uzib tashlab qo'yar u poyingga.

Lazzatlarga o'xshab ketar hasratlari,  
Hasratlarga o'xshab ketar lazzatlari...

Qaytar meni, to'xtat meni, ovut meni,  
Qo'rqit meni, alda meni, sovut meni...

To'xtatolsang, to'xtay olsam, javrmikan?  
Qizib ketgan temir endi sovirmikan?

## QUR'ONDAN IQTIBOS

Ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma,  
Birubordan qo'rqmay qasam ichganlarga,  
yolg'on to'qib, tuhmatdan to'n bichganlarga;  
ig'vo-g'iybat sanamini quchganlarga,  
ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma.

Ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma,  
yaxshilikning yo'liga g'ov qo'yganlarga,  
so'zi bilan inson dilin so'yganlarga;  
el haqqin yeb, el ko'zini o'yganlarga,  
ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma.

Ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma,  
gunohlarni gunoh bilmay qilganlarga,  
chaqimchilik illatin kasb bilganlarga;  
zino bilan bu dunyoga kelganlarga,  
ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma.

Ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma,  
mazax qilib do'st ustidan kulganlarga,  
o'z qavmiga zulmu zug'um qilganlarga;  
oyatlarni afsona deb bilganlarga,  
ergashma sen, havas qilma, bo'yin egma...

\* \* \*

Kinga chittak, kinga **sorman**,  
men ham borman.

Kimdan bezor, kinga zorman,  
men ham borman.

Do'stga – darmon, yovga – dorman,  
men ham borman.

Madadsizman, madadkorman,  
men ham borman.

Kengga – kengman, torga – torman,  
men ham borman.

Ezgulikka xizmatkorman,  
men ham borman.

Kimdan zo'rman, kimdan xorman,  
men ham borman.

Dunyodorman ham nochorman,  
men ham borman.

Tilim, tolma. Dilim, horma.  
men ham borman.

Lafzimga chin vafodorman,  
men ham borman.

Qatordagi bitta norman,  
men ham borman.

Maqsadimga mardikorman,  
men ham borman...

\* \* \*

Meni tashlab ketdi men sevgan bahor,  
bo'ldi bu keng olam ko'zlarimga tor,  
Tangrim, hayotimga yog'dular yubor,  
quyosh ila oyga oshnolik bergin,  
zimiston ko'nghimga ro'shnolik bergin.

Ko'zlarim g'arq bo'lib xo'rlik yoshiga,  
bosh qo'yib yotibman sabr toshiga,  
yo kelsin, yo o'zim boray qoshiga,  
omad parisiga oshnolik bergin,  
siqilgan dilimga ro'shnolik bergin.

Malomatim yo'qdir charxi gardunga,  
goh kunga itqitar meni, goh tunga,  
saodat ato et menday mahzunga,  
yaxshi odamlarga oshnolik bergin,  
zolimlar zulmidan ro'shnolik bergin.

Do'stman deganlardan yetdi ozorlar,  
o'ksitdi qadrimga yetmagan yorlar,  
badbin xayolimga sepib iforlar,  
ezgu umidlarga oshnolik bergin,  
xo'rlangan sevgimga ro'shnolik bergin.

Bevafo dunyoning makridan to'ydim,  
senga qurbonliqqa ko'nghimni so'ydim,  
boshimni besh mahal sajdaga qo'ydim,  
yo Tangrim, o'zingga oshnolik bergin,  
sig'ingan ko'nghimga ro'shnolik bergin.

\* \* \*

Bugun bor, vovaylo, erta bo'larmi?  
Bugun kulgan gullar erta kularmi?

Vijdon tugadimi, insof yitdimi?  
Biz o'tdikmi, bizdan dunyo o'tdimi?

Endi kelmaydimi Rumiylar, roziylar?  
Haqning chegarasin buzar osiylar!

G'oyalari buncha qo'rqinchli, bujur,  
davr qahramoni bo'ldi fisq-fujur.

Ko'paydi quyoshga tupurguvchilar –  
qorani oq deya ko'pirguvchilar.

Nohaqlar yo'latmas haqni yoniga,  
dunyo ketdi boylar jig'ildoniga.

Kofir mafkuraning ilmlaridan,  
dahriylarning dahshat filmlaridan

Bolalar ruhiga singar vahshiylik,  
urchir fahsh, yo'qolar mehru yaxshilik.

Qaylarda qoldi ul go'zal oqibat?  
Shafqatsiz farmonlar tug'ar uqubat.

Shumi, Zamon, bizga nasib etgani,  
ishq qani, jo'mardlik, muruvvat qani?

Nahotki yaxshidan, o, yovuz ko'pdir,  
kufr ko'p, imonga tajovuz ko'pdir?

Bayrog'ingni ko'tar ey din, shariat,  
Haq hukmiga bo'ysun sen, bashariyat!

Odamzod quturdi, haddidan oshdi,  
olam yo'ldan ozdi, dunyo adashdi.

Ay Zamon, nahotki oxirlab qolding,  
jon berish oldidan xir-xirlab qolding?

Yer, nechun sarg'aytding el bog'larini,  
odamzodning og'ir gunohlarini?

Ko'tarib, baloga yo'liqdingmi yo,  
qaridingmi, sen ham toliqdingmi yo?

Illatdan poklasa har kim o'zini,  
Asrab qolarmidik, ay Dunyo, seni?

Shu gul ertaga ham kulsin desang gar,  
ertada ham Erta bo'lsin desang gar.

Tavbalar qil buyuk Parvardigorga,  
sajdalar qil yolg'iz ul Biruborga.

Xudo nomin tildan qo'ymagil zinhor,  
Xudoning yo'lidan toymagil zinhor!

Ahd qilki, qilgan ul ahding g'animat,  
shoshil, ay birodar, vaqting g'animat!

## OT

Goh talpinar, depsinadi goh,  
nima istar bu asov tulpor?  
Goh xo'rsinar, gohi chekar oh,  
suvoriyga boqar umidvor...

Ay, chavandoz, qo'ygil erkiga,  
murodiga yetsin ul bedov.  
U bir buyuk maqsadga ega,  
u ot emas, u – tirik olov.

Qara, shahlo ko'zlarida yosh,  
chorlar uni ko'hna boboqon.  
Qo'yvor uni, qo'yvor, bag'ritosh,  
yollarida uyg'onsin bo'ron.

Shamollarga kersin ko'ksini,  
tokay chulg'ar uni bu uyqu?  
Yiqilsa ham o'zi depsinib,  
yana o'zi turib ketar u.

Maqsadiga talpinar go'zal,  
u parvozni sog'ingan yomon.  
Qo'yvor, hali hammadan o'zar,  
eltar seni manzilga omon.

Tuyog'ida bir latif shiddat,  
lablarida sodiq bir pichir.  
Ey, chavandoz, jilovni bo'shat,  
uchir uni, G'irotday uchir...



Goh depsinar, talpinadi goh,  
erkni qilgil unga poyandoz.  
Bo'laqol, ay, bo'laqol tezroq,  
tizginini bo'shat, chavandoz...

\* \* \*

Toq bo'ldi oxiri toqating,  
tuni bo'yi osmon yig'ladi.  
Buyuk edi mening hayotim,  
sening tor uyingga sig'madi...

Uloqtirdi zulmat kechaga,  
gardanimga sanchgan ko'zlaring.  
Gurs-gurs etib shilta ko'chaga,  
tushaverdi otgan so'zlaring.

G'o'ng'illagan ariday pusib,  
quvlab keldi o'qtalib nishlar.  
Lekin tegmay, dumini qisib,  
itday g'ingshib qaytdi qarg'ishlar.

Ketaverdim, ko'ksim bo'shadi,  
qolaverding sen qaro g'amdek.  
Dovdir-sovdir qadam tashladim,  
chekishni tashlagan odamdek...

Toqating toq bo'ldi oqibat,  
osmon ham tun bo'yi yig'ladi.  
Buyuk edi menda muhabbat,  
sening tor ko'nglingga sig'madi...

\* \* \*

Mening go‘zal gunohkorim,  
mening aziz aybdorim,  
ko‘zlarimga kulgu solgan,  
qayg‘u solgan dildorim.

Bu ne jodu? Vasling mayin,  
ichgan sari chanqadim?  
Sen o‘rgatding yig‘lab turib,  
kula olmoq san‘atin.

Suvda suzgan baliq – manim,  
ko‘kda uchgan qush – manim...  
Sen o‘rgatding hayot qadrin,  
mening erka dushmanim.

Sen o‘rgatding hasratlarni,  
bol yalatib boqmoqni...  
Kulib turib qarshilashni,  
boshga tushgan chaqmoqni...

Noming aytsam, dilim yonar,  
tilim yonar, o, tilim!.. –  
mening go‘zal jallodimdir,  
mening munis qotilim...

\* \* \*

Yig'latmadi meni, azizam,  
ko'zlaringda yig'layotgan g'am.

Ko'ngling sirin so'zda aytmading,  
yo imo, yo ko'zda aytmading.

Dil o'rtağan dardingni, munglim,  
fahm etmabdi befahm ko'nglim.

Sir aytmabdi menga, azizam,  
kiprigingda kezgan titroq ham.

Befahmlik – suronsiz jala,  
ishq ko'shkini qildi dabdala.

Sirdoshlarday bo'lib biz sirdosh,  
bir yostiqqa qo'yolmadik bosh.

Ko'ngil sindi, yurak yedi lat,  
ado qildi sevgini g'aflat.

Men shunday bo'sh, men shunday bayov,  
bo'lolmadim sen kutgan kuyov.

So'y, qahringga qonimni ichir,  
kechir, menday lattani kechir...

\* \* \*

Sening bir kulishing – men uchun jannat,  
bir qasr baxsh etdi – men tushdim asir.  
Yo Rab, bandilarga qayda bor shafqat,  
sho'rlik men asirga bir kun – bir asr.

Sog'inch changalida qoldi kunlarim,  
ey, umrim, ayt, kimga to'laysan xiroj?  
Umidlarim mening – so'lgan gullarim,  
nahot hidlamakka yo'q endi iloj?

Ayt o'zing, kimlarga ta'zim qilay men,  
kimlarga sig'inay senga boqqali?  
Ayt o'zing, jur'atni qaydan olay men,  
shoh Mashrab singari etak qoqqali?

Baxtini topmoqda qadim bu ochun,  
vatanlar bo'lmoqda erkiga hamdam.  
Darig' tutmoqdasan sen esa nechun,  
mendan, ey, dilbarim, visolingni ham?

Yana quyosh botdi, yana qon shafaq.  
Nahot bu kecha ham xayolim qaqshar?  
Nahot men o'tarman yo'lingga ilhaq,  
hazrat Navoiydek to ro'zi mahshar?..

## BEZORI SHAMOL

Ey, favvora bo'ylarinda,  
tentib yurgan tentak shamol,  
yo'qmi shohi ko'ylaging-da,  
yo'qmi senda harir ro'mol?

Chang solma, qo'y, ro'moliga,  
yulqima yor ko'ylagin-da,  
qolma hayo uvoliga,  
uyaltirma o'ylarin-da...

Yulqib qochding, parcha-purcha,  
uchar ko'kda gazetalar,  
senga parvo qilmas uncha,  
tosh haykallar, kassetalar.

Yulqib qochding, quvlar shahdam  
ro'molin ne ovvoralar,  
otma uni, shamolginam,  
qaytib bermas favvoralar.

Bezorisani, bezorisani,  
tiniq suvni loyqatursan,  
osuda dil ozorisan,  
tinchi ko'ngilni chayqatursan.

Ermak yo'qmi senga boshqa,  
muncha shilqim, sursan axir?  
Ketsang-chi, huv, tog'u toshga,  
hursan axir, hursan axir...

\* \* \*

Vatan haqda she'r o'qib beray?  
Sen tinglaysan uni erinmay?  
Unday bo'lsa, topib ber, ko'ray,  
Vatan yo'qdir qaysi she'rimda?

Men alqasam bog'u rog'larni,  
Yo dardimni, ishqimni aytsam,  
Yo qarg'asam qarg'a, zog'larni,  
Yo sevgimni, rashkimni aytsam,

Nahot bular emasdir vatan?  
Vatanmasmi kulgim, xonishim?  
Vatan erur nomus, vafo, sha'n,  
Vatan – erk deb kuyib-yonishim.

Qizlar, gullar, yulduzlar, zamon –  
Bir g'ildirak, vatan esa – o'q.  
Hislar, nafslar, yaxshi va yomon  
Yo bor qilar vatanni, yo yo'q.

Vatan haqda bo'lmasmi, ay, gul,  
Daraxt, yo oy haqda yozsam?  
Vatan xokin o'pdi deb bilgil,  
Gar she'rimda labga lab bossam...

Bir maysani jo'shib kuylasam,  
Bir xayolim vatan yoqdadir.  
Sen haqingda qo'shiq kuylasam,  
Ey, yor, bu ham vatan haqdadir...

\* \* \*

Zulmatlar bir kuni nurga do'najak,  
kulgan baxtimizni o'pgayman, gulim.  
Uchgan hushlarimiz qaytib qo'najak,  
boshingdan oq tonglar sepgayman, gulim.

Bo'ronlar bo'g'zini bir kun yirtgaymiz,  
sabr to'rlarini tortgaymiz suvdan.  
Yo'rg'a xayollarni minib yo'rtgaymiz,  
ketgaymiz qayg'udan, g'amdan, hay-huvdan...

Ketgaymiz, albatta bir kun yetgaymiz  
sabolar yurtiga, safo mulkiga.  
Abadiy vidolar aytib ketgaymiz,  
jabrlar yurtiga, jafu mulkiga.

Imonim – beshikdir, polvon umidlar,  
parivash orzular ulg'ayar unda.  
Yorug' kelajakdan kelgan xush hidlar,  
kezar dil atalmish go'zal ochunda.

Iloho, yetaylik... Dunyo ko'rmagan  
jamolga yetaylik, ko'rkka yetaylik.  
Qo'lini hech qachon qonga urmagan,  
kamolga yetaylik, erkka yetaylik...

Zulmatlar bir ajib nurga do'nganda,  
kulgan yuzlaringdan o'parman, gulim.  
Uchgan hushlarimiz qaytib qo'nganda,  
boshingdan oq tonglar separman, gulim...

\* \* \*

Nechun ko'zlaringda yoshing shalola,  
nechun so'zlaringda otashin nola,  
sahidam sabosi nozik ado-la,  
nozik xayolingni buzib o'tdimi?

Bog'lar orolanib hayron qaraydi,  
ne gap deb chug'urlab qushlar so'raydi,  
ul qaro ko'zlaring battar qoraydi,  
bag'ringni bir hasrat ezib o'tdimi?

Ochilib qoldimi ko'nglingdagi sir,  
yo o'zga sevgiga bo'ldingmi asir,  
yo ko'rgan tushlaring qildimi ta'sir,  
yo noxush xotiring to'zib o'tdimi?

Nechun za'faronsan, urdimi yo zax,  
yo ta'na chimchidi, yo chaqdi mazax,  
ishq kirgan dilingga kirdimi do'zax,  
yo shayton qoningda qo'zib o'tdimi?

G'am degan baloni qiyratgan edik,  
oshifta dillarni yayratgan edik,  
ishq degan bir gulzor yaratgan edik,  
ayriliq shamoli esib o'tdimi?

Olamda nima bor ishqdan xayriliq,  
hijron ishq yo'lida jo'n bir qayriliq,



yoxud shu arzimas, qisqa ayriliq,  
umiding rishtasin uzib o'tdimi?

Hayronman, g'ussaga botibsan nechun,  
hayronman, bu holdan hayronmas ochun,  
yo otang, menga dil berganing uchun,  
jazolab, qulog'ing cho'zib o'tdimi?..

Nechun ko'zlaringda yoshing shalola,  
nechun so'zlaringda otashin nola,  
subhidam sabosi nozik ado-la,  
nozik xayolingni buzib o'tdimi?

\* \* \*

Hayotning har oni tuman-tuman roz,  
ovoz ol va bergil erk uchun ovoz,  
qaydadir chinqirar so'yilgan xo'roz,  
ojizlarga yon bos, rahm et, ko'z yoshla,  
yaxshilik qilgilu daryoga tashla,  
bilsa, baliq bilar, bilmasa – xoliq.

Xo'rozning bo'g'zidan sachragan ul nur,  
butun bir dunyoni uyg'ota olur,  
uyg'ongan dunyoning boqishlari hur,  
hur-hur shamolni o'p, lablarin tishla,  
yaxshilik qilgilu daryoga tashla,  
bilsa, baliq bilar, bilmasa – xoliq.

Chinqiriq to'ldirar yurakka vahm,  
ingroq farzandidir tug'ilgan rahm,  
dillarda ilonday o'rmalar zahm,  
adolat bayrog'in balandroq ushla,  
yaxshilik qilgilu daryoga tashla,  
bilsa, baliq bilar, bilmasa – xoliq.

Yomg'irdan qochganlar do'lga duch kelar,  
o'ngdan yuz burganlar so'lga duch kelar,  
yo'ldan adashganlar yo'lga duch kelar,  
dunyoni hurriyat yo'lga boshla,  
yaxshilik qilgilu daryoga tashla,  
bilsa, baliq bilar, bilmasa – xoliq.

\* \* \*

Qalxim ungurida yotgan muhabbat,  
ilonga aylanar, seni o'ylasam.  
Ilonga aylanib, o'tkir, beshafqat,  
qat'iy so'zlar bilan ichar u qasam.

Ohista o'rmalab, o'rim sochlaring  
bag'rida ochilar boychechak bo'lib.  
Qomating sarviga chirmashib yashar,  
zarpechak emasu gulpechak bo'lib.

O'sma bo'lib inar qoshlaringga u,  
sirg'a bo'lib tishlar quloqlaringni.  
Ilaklaring chirmar bilakuzukday,  
uzuk bo'lib silar barmoqlaringni.

U seni boy qilar, baxtlarga burkar,  
xazina qo'riqlab yotganday, jonim,  
qo'riqlab yotadi seni qalbimda,  
mening muhabbatim – mening ilonim...

\* \* \*

Men uni merganning o'qlari yetmas,  
johilning do'qlari yetmas joylardan,  
men uni jodugar jodusi o'tmas,  
suvlari hayotbaxsh, jonbaxsh soylardan,  
eng uzoq o'ylardan topganman, do'stim,  
cholg'usiz kuylardan topganman, do'stim.

U uchar va lekin ajabki, qushmas,  
tushmas u, tushmollar ko'rolmas ta'bir,  
baliqdir va lekin qarmoqqa tushmas,  
yemishi – yurakdir, yemishi – sabr;  
guldir u, har kimsa terolmas, do'stim,  
boylikdir, hotamlar berolmas, do'stim.

U – tirik, u olar xayoldan nafas,  
u odam qalbiga qurar uyasini.  
Unga so'z – tuzoqdir, xotira – qafas,  
cho'qilab yeydi u inson miyasini,  
nurdur u, hamma ham ko'rolmas, do'stim,  
yo'ldir u, hamma ham yurolmas, do'stim.

Kim topsa, keng olam shuniki bo'lar,  
kaftiga jo bo'lar zaminu falak,  
o'lsa ham mozori nurlarga to'lar,  
poyiga gul qo'yar kelajak-malak,  
uhdir u, har kim ham ushlolmas, do'stim,  
cho'g'dir u, ushlagan tashlolmas, do'stim...

\* \* \*

Men uchun xushbo'y gul – sen uchun badbo'y,  
men uchun nekbini kas – sen uchun badbin.  
Sen uchun zino – ishq, men uchun u – nahs,  
adolat – menga haq, sen uchun u – kin.

Men uchun tong otgan lahzada, ne tong,  
sen uchun kun botar, bo'larsan ado.  
Tunda ham gunoh yo'q, kun ham begunoh,  
kun kimga salomdir, tun kimga – vido.

Sen uchun sadaqa go'yoki pora,  
chilvirni ilon deb seskanar qo'rqqoq.  
Sen oppoq ko'z bilan ko'rasan: qora,  
men qora ko'z bilan ko'rdim: dunyo oq.

Bir tangani ko'rdik ikki tarafdin,  
men ko'rdim tang'ani, sen-chi, raqamni...  
Men sening qo'lingni ushlayman, do'st, deb,  
sen esa ushlaysan mening yoqamni...

Sen ostdan qarading, men boqdim ustidan,  
men o'ngdan qaradim, sen boqding chapdan.  
Sen sirtdan boqqanda men boqdim ichdan,  
men gapga qolganda, sen qolding gapdan...

Biz bitta arqonning ikki uchimiz,  
birimizda – qoziq, birimizda – ot.

Biz bitta jur'atmiz, jur'atga esa,  
goh jazo berilar, gohi mukofot.

Tongda kun chiqmog'i qanchalar go'zal,  
shunchalar go'zaldir shomda botmog'i.  
San'atdir – bir tilning bir-biriga yov  
ikki yot olamga olqish aytmog'i...

\* \* \*

Uchrashgan biz emas – bahor ila kuz,  
hurpaygan jayrayu sip-silliq qunduz,  
bulutsiz kechayu bulutli kunduz...

Uchrashgan biz emas – keksaygan yoshlik,  
sarkash latofatu latif sarkashlik,  
g'ashlangan shodligu shodlangan g'ashlik...

Uchrashgan biz emas – bulbul va g'ajir,  
gul ila tikanu vasl ila hajr,  
gunoh ila savob, jazo va ajr...

Uchrashgan biz emas – qartaygan sho'xlik,  
yoshargan vazminlik, ochlik va to'qlik,  
shohlik va gadolik, borlik va yo'qlik...

Uchrashgan biz emas – olov ila suv,  
navqiron ehtiros, keksaygan tuyg'u,  
yig'layotgan kulgu va kulgan qayg'u...

\* \* \*

Tosh og'ir. Tog' og'ir. Og'irdir daryo.  
Sevmaysan. Bu alam cho'g'dan-da og'ir.  
Daryodan-da og'ir hasrat bu, ayo.  
Toshdan-da og'ir bu, tog'dan-da og'ir.

Hammaga boqqan oy menga boqmaydi.  
Hammaga kulgan gul kulmaydi menga.  
Hammaga yoqqan toy senga yoqmaydi.  
Hammaga teng yigit teng emas senga...

Sevmaysan. Nahot bu mevasiz daraxt  
mening taqdirimga otgandir ildiz?  
Sensiz bir shu'ladir men uchun karaxt.  
Oshiqlar ko'zini kuydirgan yulduz.

Sevmaysan. Tokay bu azobga chiday?  
Sevmaysan. Nazarga ilmaysan gulni.  
Sevmaysan. Ayt, axir qanday uyg'otay?  
ko'ksingdagi beg'am, mudroq bulbulni?..

## YASHIK ODAM

*Kabo ABE ra'mani qahramoniga*

Ay, xoking muqaddas xokmidi, do'stim,  
hislaring shu qadar pokmidi, do'stim?

Qalbing jannatmidi, ishqing nurmidi,  
orzung malakmi, darding hurmidi?

Vah, diling shunchalar nozik dilmidi –  
sig'magan qilmidi, siqqan gulmidi?

Shunchalar ojizu ma'summidning sen,  
qil qotil, til qotil, gul qotilmidi?

Sen uchun ko'z – tikan, nigohlar – tikan,  
ingroqlar tikanu oh-vohlar – tikan...

Navolar – qo'ytikan, qalbingni tilar,  
savollar – ko'ztikan, labingni tilar...

Atrofiging tirnaydi, tirnar o'ng-so'llar,  
qo'lingni tirnaydi poraxo'r qo'llar.

Yolg'on oq yuzingga chaplar bo'yoqlar,  
oyog'ing qonatar fohish oyoqlar...



Ko'nglingni buzadi ko'ngli buzuqlar,  
qoningni so'radi qonun-tuzuklar.

Aynagan dunyodan ko'ngling aynaydi,  
zardali dunyodan zardang qaynaydi.

Mezondan tashqari tartib-mezonlar,  
nizomga bo'ysunmas nomsiz nizomlar.

Ikki til, ikki dil, ikki yuzliklar,  
qonundan qon ichgan qonunsizliklar.

Ko'r-ko'rona qullik, toshdil sallotlik,  
zolimlik, qattollik, toshlik, jallodlik.

Yo qo'rquv, yo ta'ma bois sotqinlik,  
sotqinlik vajhidan beayb tutqunlik.

El ko'nglin ovlagan yolg'on va'dalar,  
va'daga ishongan go'llar, lodalar.

Yotsang, yotog'ingda to'kar qoningni,  
o'tirsang, o'rningda olar joningni...

Bu hayot, bu dunyo shu qadar irkit,  
axlat qutilarda bijg'igan sarqit.

Senga ming avlo do'st ig'volaridan,  
dunyoning dunyoviy g'avg'olaridan...

G'ujanak bo'lding sen, dunyodan qochding,  
va nogoh o'zga bir dunyoni ochding.

Har lahza duch kelib ranju g'ashlikka,  
sen urding o'zingni karton yashikka.

Ko'zlarim haromni ko'rmasin deding,  
gadoni, g'ulomni ko'rmasin deding.

Ko'zlarim ko'zlardan kuymasin, deding,  
ko'zlari ko'zimni o'ymasin, deding.

Qochib bu dunyoning bulg'onchlaridan,  
voz kechib, rohatu quvonchlaridan.

Ul karton yashikka o'zni tiqding sen,  
nahot bu balchiqdan toza chiqding sen?

Qochib bu fasoddan, yiring, mishiqlan,  
ne najot topding shu karton yashikdan?

Nahot sen jo bo'lib karton yashikka,  
botganing bilmading boshqa mishiqlan?

Bizning ul "besavod" bobolar – mahzan,  
sen kabi qochoqlar uchrasa ba'zan,

Beparvo sipqorib bu dunyo jomin,  
"zohid" deb qo'yanlar undaylar nomin.

Ay, zohid, yolg'izlik mayin ichib sen,  
bashar diydoridan qochib, kechib sen.

Nelarga to'ldirding yuraging to'rin,  
kimlarga bo'shatding dunyoda o'rin?

Ezgulik xizmatin qilsa har anjom,  
bu dunyo bo'lmasmi to'kis, saranjom?

Gar inson farishta bo'lsa har ishda,  
bo'lmasmi bu dunyo obod, sarishta?

Sen-chi, bu olamdan tortib poyingni,  
shaytanat qavmiga berding joyingni.

Yolg'iz eding, yolg'iz yorug' kuch erding,  
nega o'z nuringni o'zing o'chirding?..

\* \* \*

Men tug'ildim, guvohim – Mirrix,  
urar edi chaparasta qor.  
Oh urma, bas, uflama, tarix,  
bir eslab ko'r, shunday kuning bor.

Sovuq edi nihoyatda kun,  
men tug'ilgan o'sha mahali.  
Cho'ng yong'indan o'rlagan tutun,  
daydir edi jahonda hali.

Qora ko'zlar qora xatlardan,  
giryon edi, shilpiq, shalabbo.  
Qochgan edi barcha yurtlardan,  
non-nasiba, go'shtu murabbo.

Nahot uryon dunyoga keldim,  
ko'rmoq uchun juldur hayotni?  
Ko'rmay debmi kechroq tug'ildim,  
u dahshatli qirg'inbarotni?

Tug'ildimmi Afrosiyobning,  
o'chib ketgan rasmlariday,  
qayg'ularni o'chirmoq uchun?

Qonlardagi g'aflat va xobni,  
bahorning hur nasimlariday,  
sahrolarga ko'chirmoq uchun?

Men tug'ildim buyuk bobolar,  
miltig'ini o'qlamoq uchun.  
Qaydasiz, deb, go'zal ibolar,  
hayolarni yo'qlamoq uchun.

Men tug'ildim kuylamoq uchun,  
vatanni yor atamoq uchun.  
El baxtini o'ylamoq uchun,  
yor noziga chidamoq uchun.

Men zulmga butkul yot edim,  
muhabbatga do'st edim, o, men.  
Yovuzliklar ta'min tatidim,  
ichib ko'rdim men shodlik g'amin.

Paxta terdim, mix qoqdim, boqdim  
qo'y-qo'zi, mol, echki-uloqni.  
Tirmashib tog'-toshlarga chiqdim,  
axtarib eng shaffof buloqni.

Men tug'ildim sovuq dillarni,  
yoqmoq uchun, cho'g'lamoq uchun.  
Boshlarini silab qullarning,  
qo'shilishib yig'lamoq uchun.

Xazon titgan shamolday hazin,  
g'uvlash uchun tug'ilmadim men.

Bo'ri kabi bemaqsad, uzun,  
uvlash uchun tug'ilmadim men.

Chidash uchun tug'ilganman men,  
achchiq kulgi, shirin yig'iga.  
Men tug'ildim aylanmoq uchun,  
she'riyatning rangin tug'iga.

Men tug'ildim yurt omadiday,  
el shodligin mayday ichgali.  
Men tug'ildim, yor qomatiday,  
quchilmas olamni quchgali.

Men dillarni erkalab, suyub,  
qitig'lay deb keldim, yoronlar.  
Baxt ko'ksiga boshimni qo'yib,  
bir yig'lay deb keldim, yoronlar.

Tug'ilmadim men tasodifan,  
onam, sening tiragingman men.  
Xalqim, sening yuragingman men,  
vatan, sening keragingman men.

Tug'ilmadim men tasodifan...

## KO'CHA

Gugurt qutisiday terildi uylar,  
bir Ko'cha tug'ildi purviqor, ko'rkam.  
Keldi semiz-semiz hisori qo'ylar,  
keldi to'y-tomosh, karnay-surnay ham.

Kimlarga bermadi bu Ko'cha ilhom,  
kimlar unga kelib, ketmadi kimlar?  
Qo'ydilar O'tkinchi Dunyo degan nom,  
simyog'och o'rnatib, tortdilar simlar.

Chiroqlar tizildi bamisli munchoq,  
baxsh etib tunlari chiroy va savlat.  
Odamlar o'tdilar u yoqdan bu yoq,  
qorindor, dimog'dor, qashshoq, badavlat.

O'tdilar nekbinlar, o'tdi badbinlar,  
o'tdi serg'ayratlar, o'tdi sustkashlar.  
O'tdi xudojo'ylar, o'tdi bedinlar,  
o'tdi hotamtoylar, o'tdi pastkashlar.

O'tdi tamannolar, nozu firoqlar  
qoldirib turfa xil anvoyi islar.  
O'tdi poshnasini ezgan oyoqlar,  
o'tdi bigizposhna juvonlar, qizlar.

Kimdir hushyor o'tdi, kim – kayfitaroq,  
kim o'tdi burqsitib tamakisini.  
Faqat tashlab ketdi bir yalang oyoq,  
KO'CHAgA insonning asl izini.

\* \* \*

Men tushingman, qayta ko'rmaysan,  
qaytib kelmas baxtli holingman.  
Men yo'lingman, boshqa yurmaysan,  
ro'yobi yo'q xomxayolingman.

Chorcho'bangda eski rasmman,  
ko'rib, ko'ngling xushlay olmaysan.  
Sochlaring silagan nasimman,  
sezasan-u, ushlay olmaysan.

Men – tizginsiz hislar tizgini,  
men – jilovsiz istak jilovi.  
Men – shirin xayollar buzg'uni,  
men – o'chgan xotirang olovi.

Men yo'lingda tolmas yo'lchiman,  
haddidan oshganlar haddiman.  
Muhabbat elidan elchiman,  
elas-elas jannat hidiman.

Sen-chi, sen-chi, sen kimsan menga?



\* \* \*

Bog'larga atirlar sepadi bahor,  
yashil qo'shin tortib qo'padi bahor,  
qishning qanshariga tepadi bahor,  
na go'zal bosqindir bahoriy bosqin!

Oq, qizil, zangori libosli lashkar,  
bulutlarga minib otishma boshlar,  
maysani yopinib mo'ralar toshlar,  
quyosh shovullatib nur to'kar toshqin.

Bu qo'shin oldida oq bayroq tutib,  
qorlarni, muzlarni eritib, yutib,  
oqparrak oychasin xursand silkitib,  
boychechak yugurar hammadan o'zg'in.

Boychechak ortidan qiqirlab xushhol,  
boshlarida sariq, quyoshrang ro'mol,  
to'p-to'p qizaloqlar – nozik-navnihol,  
qo'zigullar kelar yoprilib to'zg'in...

Yaydoq dov-daraxtni bosar yaproqlar,  
taslim bo'lar bog'lar, dalalar, tog'lar,  
yig'lab peshvoz chiqar shaffof buloqlar,  
bu go'zal bosqinga qayda bor to'sqin?

Kim bilan, kimlarga qarshi jang qilar?  
U qattol, battol qish holin tang qilar.  
Olamni, odamni, ruhni yangilar,  
na go'zal bosqindir bahoriy bosqin!

\* \* \*

Men seni nahorni kutganday kutdim,  
daraxtlar bahorni kutganday kutdim,  
cho'qqilar shunqorni kutganday kutdim,  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Gar kelsa, boshingga bo'rk bo'lar, devdim,  
umringa, yurtimga ko'rk bo'lar, devdim,  
erksiz manglayimga erk bo'lar, devdim,  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Torim bor, torimni cholg'uvchim yo'qdir,  
gulim bor, gulimni olguvchim yo'qdir,  
ko'nglim bor, yog'dular solguvchim yo'qdir,  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Tush ko'rsam, tushmolim ta'bir beribdi:  
"Bolam, senga O'zi sabr beribdi..."  
Yo'q, sabr emas bu, jabr beribdi!  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Men seni kitoblar ichida kutdim,  
shiorlar, xitoblar ichida kutdim,  
zulmatlar, oftoblar ichida kutdim,  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Jazm etsam, tashvishlar, ishlar ushladi,  
o'tlig' yoz, qahraton qishlar ushladi,

seni-chi, seni qay tishlar ushladi?  
Kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Qadrim, qadriyatday kutdim men seni,  
omadim, omadday kutdim men seni,  
erkim, saodatday kutdim men seni,  
kelmading. Men esa bormadim. Dod-a.

Yosh o'tdi, angladim, turmog'im kerak,  
bas, o'zim, ha, o'zim bormog'im kerak,  
sen o'zi nimasan? Ko'rmog'im kerak.  
kelmading. Bormadim. Ko'rmadim. Dod-a.

\* \* \*

Umid shamollari ortiq esmaydi,  
yodimni yondirmas tanish totli tot.  
Ishonchim mudraydi, bot-bot esnaydi,  
bot-bot orziqtirar olis xotiro.

Kayfiyatim tushar, ruhim mungraydi,  
termulib-termulib dilim toliqar.  
Hislarim ingraydi, so'zim singraydi,  
yuragim xo'rsinar, ko'zim to'liqar...

Borlig'im titraydi, vujudim larzon,  
bag'rim sim-sim to'kar tilaklarini.  
Bitta-bitta tushib ko'madi xazon,  
ko'nglimning sen o'tgan yo'laklarini...

\* \* \*

Aqlimiz – dunyoni bir bosh uzumday  
siqib tayyorlangan may to'la quduq.  
Bu quduq tubida tinmasdan bir nay,  
ezgu bir kuy chalar, Xudoga sodiq.

Bu quduq tubida bo'ronlar bedor,  
bu quduq tubida sokin go'sha yo'q.  
Bu quduq tubida halovat bekor,  
cheksiz to'lg'oqlarga ona bu quduq.

Kimning qudug'ida may emas, ayron,  
yo bo'lsa liq to'la achigan qatiq.  
Dilni vayron qilsa, bo'lmangiz hayron,  
so'zi betuz bo'lsa, ishi – beyutuq...

Aqlimiz dunyoni bir bosh uzumday,  
siqib tayyorlangan may to'la quduq.  
Bizni biyron qilgan qudrat ham shu may,  
shu maydir goh bizni aylagan duduq.

Qancha teran bo'lsa agar bu quduq,  
shuncha tor ko'rinar bu dunyo ko'zga.  
Bu mayni olamga qilmasak tortiq,  
cho'kib o'lamiz o'z qudug'imizga...

\* \* \*

So'zlarim ozodlik so'zidan ozod,  
erk yuzi ularga berkdir da'atan.  
So'zlarimda kurash kurashlarga yot,  
so'zlarimda vatan yashar bevatan.

Shamol yo'q. Havo yo'q. Tug'ilar so'zlar,  
na qilgay iltijo, na qilgay zarda.  
Beimkon, bag'ri qon, bo'g'ilar so'zlar,  
yuzlarida alvon – qip-qizil parda.

Sho'rliklar o'zlarin urar to'rt tomon,  
ko'nglim zindonida izg'ir jonsarak.  
Zamon xos tuynukdan boqar har zamon,  
oy hamon bedarak, quyosh bedarak.

Davr vujudida ming turli yara,  
so'zlarim tig' bo'lib kesolmas, yo Rab.  
So'zlarim yo'lida qizil panjara,  
so'zlarim yel bo'lib esolmas, yo Rab.

Qaysi bir qasirg'a sindirgay shitob,  
ozodlik jallodin – iskanja toshin?  
Oh, qachon yelkamga tegar ul oftob,  
qachon g'oz tutarman egilgan boshim?

Kim tiqib o'zbekning og'ziga paxta,  
shonli peshtoqiga qonli tug' ilgan?  
Savollar qon qusar, bas, laxta-laxta.  
Shamol yo'q. Havo yo'q. So'zlar bo'g'ilgan...

\* \* \*

Sepgan atirlaring bunchalar xushbo'y,  
ising oy ismiday bunchalar oydin?  
Jising qiz jismiday bunchalar xushro'y,  
toshlar tars yorilar bunday chiroydin.

Nafaslaring Iso nafasiday pok,  
gul ismiday nafis ismingga borman.  
Husningdan ko'z tinar va tinar idrok,  
hushdan ayirguvchi isingga borman...

Ismingda qo'shiqlar, navolar pinhon,  
safo bor, karashma, ishva, g'amza bor.  
Moviy kengliklaru havolar pinhon,  
hurriyat shamsi bor, erkning ramzi bor.

Ohista-ohista essa nasimlar,  
bulbulga aylanib chah-chahlar toshlar.  
Sayrar qaldirg'ochga aylangan simlar,  
hatto ustunlarga jon ina boshlar...

Ayozlar ariydi, muzlar ariydi,  
eriydi buloqlar ko'zin bosgan tosh.  
Ko'ngillar eriydi, ko'zlar eriydi,  
har g'arib bosh uzra chiqar bir quyosh.

Senda hush olguvchi atir bor, bahor,  
toshga dil berguvchi sas bor, sayram bor.  
Qur'ondan oyat bor, she'rdan satr bor,  
navro'ziy bazm bor, ishqiy bayram bor.

Ay, manim ko'nglimga qo'ngan xumoyim,  
ruhimga she'r bo'lib cho'nguvchi bahor.  
Bir kun o'lar bo'lsam, jismim muloyim,  
gul bargiga o'rab ko'nguvchi bahor.

Sepgan atirlaring bunchalar xushbo'y?..

\* \* \*

Ayting, haqiqatni qachon aytasiz,  
ay, yaltoq qo'shiqlar, shaltoq xitoblar?  
Siz qachon qaytasiz, qachon qaytasiz,  
o'zbek tuprog'idan ketgan kitoblar?

Siz – teran ilmimiz, yuksak zehnimiz,  
siz – bizning o'tmishda qolgan nurimiz.  
Urfu odatimiz, tariximizsiz,  
fe'lu atvorimiz, tafakkurimiz...

Johillar gulxanga otdilar sizni,  
sovg'a deb tutdilar go'llar, to'g'rilar.  
Sotqinlar nafsi deb sotdilar sizni,  
o'g'irlab ketdilar sizni o'g'rilar.

Begona yurtlarda mahkumsiz bugun,  
quyosh yo'q, havo yo'q, hurlik yo'q sizga...  
Sizni yurtingizga qaytarmoq uchun  
Hamid Sulaymonlar yetishmas bizga...

\* \* \*

Sevgi keldi – o‘t tushdi jonga,  
bir xas kabi men o‘tga tushdim.  
Olib ketdi xayol osmonga,  
go‘yo bir taxt – bulutga tushdim.

Ishq yo‘g‘ida qor ichra edim,  
ishq keldiyu naq hutga tushdim.  
Nola ichra, zor ichra edim,  
nahot tindim – sukutga tushdim?

Tushdim, ay, qiz, nigohingga men,  
nigoh dema, barqutga tushdim.  
Tushsang edi nikohingga sen,  
men der edim: oh, qutga tushdim...

So‘z tashladim, so‘zga tushmading,  
olam yondi, men dudga tushdim.  
Ko‘z tashladim, ko‘zga tushmading,  
ko‘zyosh otliq bir rudga tushdim.

Kuydim, pishdim, ko‘pirdim, go‘yo,  
qaynab turgan bir sutga tushdim.  
O‘zing unga insof ber, Xudo,  
deb yolvordim, “kut-kut”ga tushdim.

Notinch qilay tushlaringni men,  
dedim, duo – umidga tushdim.



Ul berahm toshlaringni men  
silab-siypab, o'gitga tushdim...

Menga tushsang, dersan bearmon:  
"Sulaymonday yigitga tushdim".

Toki men ham qilmasman armon:  
"Qo'lin tutmay, tobutga tushdim..."

\* \* \*

O', bog'lar, o', bog'lar, o', bog'lar...  
Yo'q sizdan o'zga bir habibim.  
Sevgi solsa ko'nglinga dog'lar,  
faqat siz, faqat siz – tabibim.

Savollar bag'rimni arralar:  
adolat tobakay so'zdadir?  
Nomardlar yetkazgan yaralar,  
davosi sizdadir, sizdadir.

Siz – nafas, musaffo bir havo –  
rohatsiz, surursiz, navosiz.  
Do'stlarim yetkazgan bedavo,  
dardimga benazir davosiz...

O', dilim dil emas – mozordir –  
ko'milgan orzular, havaslar.  
Bu dunyo beshafqat bozordir,  
sotilgay umrlar, nafaslar...

Men sizga suyanib yig'layman,  
qalbimda xo'rliklar, qadoqlar.  
Men sizdan shifolar tilayman,  
o', bog'lar, o', bog'lar, o', bog'lar...

\* \* \*

Tog' dushman izlamas asriy qorlardan,  
yor dushman izlamas o'zga yorlardan,  
bog' dushman izlamas tikanzorlardan,  
gulzorga gulzorning o'z guli dushman.

Qoloqning dushmani – qoloqligidir,  
buloqning dushmani – buloqligidir,  
sulohning dushmani – sulohligidir,  
puldorga puldorning o'z puli dushman.

Gado ham gadoga dushman-da doim,  
shohning dushmanlari kishanda doim,  
mazlumlar zolimga kushanda doim,  
quldorga quldorning o'z quli dushman.

Do'stning luqmasini dushman yutolmas,  
do'stning imlosini dushman bitolmas,  
do'stning daryosidan dushman o'tolmas,  
dushmanga dushmanning o'z yo'li dushman.

O'zligin bilgan el yovga el bo'lmas,  
el bilan tillashgan til unutilmas,  
to'g'ri to'g'riga hech dushmanlik qilmas,  
o'g'riga o'g'rining o'z qo'li dushman.

Tulkining dushmani mo'ynasi deb bil,  
jonidan ayrilar suyagi deb fil,  
begunoh ohuga o'z mushki qotil,  
nodonga nodonning o'z tili dushman.

Yuzi chiroylining dushmani – yuzi,  
ko'zi chiroylining dushmani – ko'zi,  
dushman izlaganning dushmani – o'zi,  
dushmanga dushmanning o'z dili dushman.

\* \* \*

Qorlar yog'ar, izlar bosilar,  
qaytmas bo'lib ketdi moziylar.  
Begunohlar dorga osilar,  
yallo qilib yashar osiylar.  
Qorlar yog'ar, izlar bosilar.

Meni qiynar ortiq qonbosim,  
qay yupunni ezar qahraton.  
Kimni kutar mahzun marosim,  
olib ketar kimni saraton?  
Meni qiynar ortiq qonbosim.

Kimdir kimga o'qir chilyosin,  
kimdir yurak davosin izlar.  
Kimdir kezar tushlar dunyosin,  
yo'ldan urar kimnidir qizlar.  
Kimdir kimga o'qir chilyosin.

Umr ko'rar birov shod, uzun,  
birov yashar g'urbatda qisqa.  
Tashlab ketar kimnidir husn,  
kimni Tangri mehrdan qisgay.  
Umr ko'rar birov shod, uzun.

Bu shundayin notanti dunyo.  
Kimga azob, kimgadir maza.  
Kimga – zulmat, kimgadir – ziyo,  
kimgadir to'y, kimgadir aza.  
Bu shundayin notanti dunyo.

\* \* \*

Aldoqchi saltanat qachon xushlaydi,  
adolatning odil xitoblarini?  
Qachon javonidan olib tashlaydi,  
zamon o'z yolg'onchi kitoblarini?

Bilaman, qisqadir yolg'onning umri,  
bir kun qalloblikni fosh qilar fursat.  
Hanuz yashaydilar, maynani – qumri,  
qarg'ani bulbul, deb, birovlar xursand.

Qorani oq derlar, oqni-chi, – qora,  
fazilat atarlar chirkin illatni.  
Hurmatni – xushomad, hadyani – pora,  
hur millat deydilar haqsiz millatni.

Chanoq shilgan qo'llar – oltin qo'l emish,  
yelkasi qisiqlar – yurt qahramoni.  
Yallachi maddohlar chin bulbul emish,  
til yutgan qo'rqoqlar – el pahlavoni.

Qo'li ishlaganning – ko'rpasi mag'or,  
tili ishlaganning – yostig'i po'ssiq.  
Iste'dod egasi yashar och-nahor,  
istibdod egasi – kekirar sassiq...

Aldoqchi saltanat qachon xushlaydi,  
adolatning odil xitoblarini?  
Qachon javonidan olib tashlaydi,  
zamon tilyog'lama kitoblarini?

\* \* \*

Gung yig'lar: "Ey, Xudo, til ber, gapiray..."  
ko'r yig'lar: "Ko'zim och, jahonni ko'ray..."

Oqqadar farzandga jovdirab padar,  
yolvorar: "Imon ber, imonni ko'ray..."

Dong'il yo'l bo'yida bo'zlar bo'tako'z:  
"Menga rahm etguvchi karvonni ko'ray..."

Navoiy bulbuli yosh to'kar hanuz:  
"Buz oltin qafasni, osmonni ko'ray..."

Yolg'onu riyodan zada kas ingrar:  
"Men ham bir insonday insonni ko'ray..."

Dod solar qalloblar jabrin chekkan zot:  
"Shaytonni ko'p ko'rdim, Rahmonni ko'ray..."

Men mute ko'zlarga termulib dedim:  
"Tangrim, qul qonida isyonni ko'ray..."

\* \* \*

G'amning qaro qushlariga don etma meni,  
iztiroblar og'ushlagan jon etma meni,  
raiysiz, mamlakatsiz xon etma meni,  
har baloga toqatli qil, sabrni o'rgat.

Balki, dunyo oxiri yo'q, kimsasiz cho'ldir,  
yo'qdan yo'qni bino qilgan sehrli qo'ldir,  
hech narsadan hech narsaga eltguvchi yo'ldir?  
Har baloga toqatli qil, sabrni o'rgat.

Har narsada bir yomonlik ko'rguvchi qilma,  
nafs yo'lida chaparasta yurguvchi qilma,  
munkirlarning qatoriga kirguvchi qilma,  
har baloga toqatli qil, sabrni o'rgat.

O'rgat, bilay yomonlardan jirkanishni men,  
haromlardan, yolg'onlardan irganishni men;  
o'rgat, bilay yaxshilarga tirkanishni men,  
har baloga toqatli qil, sabrni o'rgat.

Yaxshi-yomon kunda do'stsiz qoldirma meni,  
hamma yig'lab turganida kuldirma meni,  
xalqning baxti tug'ilganda o'ldirma meni,  
har baloga toqatli qil, sabrni o'rgat.

\* \* \*

Yo'q narsani orzu qilar orzumand ko'nghim,  
og'ushiga imlar meni noma'lumliklar.  
Biyobon – jim, yobonlar – jim, xiyobonlar – jim,  
mo'jizalar va'da qilar barcha jimliklar.

Xayolimni qaytarmayman qaltis sayrdan,  
bilmoq uchun chog'lanaman bilgisizlarni.  
Mening telba istaklarim kelar qayerdan,  
qanday qilib kuldiray men kulgisizlarni?

Bo'm-bo'sh bo'lib ko'ringan bu osmon bo'sh emas,  
chuqur bo'lib ko'ringan bor ummonlar – yuza.  
Uchib yurgan bu qushlar ham aslo qush emas,  
qish – mo'jiza, yoz – mo'jiza, bahor – mo'jiza.

Yo'q narsani orzu qilar orzumand ko'nghim,  
ko'rmaganni ko'rsam deydi ko'zlarim – yig'loq.  
Hech tutmagan narsalarni tutsam der qo'lim,  
eshitsam der eshitmagan gaplarni quloq.

Koshki edi hech bo'lmagan narsalar bo'lsa,  
zo'r niyatga ona bo'lsa koshki hur niyat.  
Zurriyodim, koshki sening omading kulsa,  
kelin bo'lib kelsa tezroq go'zal hurriyat.



\* \* \*

Bolam, bir gapim bor, qulog'ingga il:  
dunyoda nomusni chinakam do'st bil,  
yig'lab turgan bo'lsang, dushman ko'rsa, kul,  
sirni hech boy berma, chakki bo'lmaydi.

Qay el mutelikni ep ko'rsa agar,  
minnatning nonini yeb yursa agar,  
xushomad, ta'maga zeb bersa agar,  
bu eldan daqqiroq daqqi bo'lmaydi.

She'r ham ozod emas, turog'i bordir,  
har kasbu korning ham yarog'i bordir,  
har ishning oqibat so'rog'i bordir,  
qaychini ming charxla, pakki bo'lmaydi.

Kimki el yuziga oyoq qo'ymasa,  
o'zi o'z jigarin ko'zin o'ymasa,  
kimki o'z millatin baxtin o'ylasa,  
ajri rahmat bo'lar, dakki bo'lmaydi.

Qay el o'z yeriga o'zi egadir,  
unga o'z rizqini o'zi ekadir,  
to unga haqiqat bo'yin egadir,  
bil, undan balandroq cho'qqi bo'lmaydi.

Qaydaki, itlar o'z egasin qopsa,  
eldoshlar bir-birin poyini chopsa,  
qizlari xayolan iblisni o'psa,  
bu yurtning biri hech ikki bo'lmaydi.

\* \* \*

Bu yolg'on dunyoda yolg'on emasman,  
yolg'on dunyoga yor bo'lg'on emasman.  
Obod qilolmadim kuygan dil bog'in,  
suygan dil bog'iga bog'bon emasman.

Kuygan dil suyguvchi bir dilga zordir,  
injob intilaman – yetmagim bordir.  
To bu kun yetganim – tig'li sukunat,  
to bu kun yetganim – tig'siz ozordir.

Ay, sanam, men sendan mehr tilandim,  
illo, aysh demadim, ishq deb elandim.  
Xayoling poyiga ko'nglimni so'yib,  
har kecha qoniga necha belandim.

Hasratdir bag'rimdan to'kkan to'kindim,  
to'kmasam – to'kildim, to'ksam – o'kindim.  
Xudodan o'zgaga yukinmoq – gunoh,  
gunohga botdim men, senga yukindim.

Mening bor gunohim – telba sevgimdir,  
sevganman, sevyapman, yana sevgumdir.  
Dunyodan dunyoning yolg'onlarini  
quvganman, quvyapman, yana quvgumdir...

Nechun indamaysan, ay, go'zal o'jar,  
yo jodu qilganmi seni jodugar?  
Bizni ne ko'rgulik kutar oldinda,  
qurch cho'qqi kutarmi, kutarmi yo jar?..

\* \* \*

Qo'ldoshim, qo'lingni sayyorga<sup>1</sup> berma,  
dildoshim, dilingni ayyorga berma,  
eldoshim, elingni ag'yorga berma,  
umringni eng ezgu a'mollarga ber.

Yig'lama, yovg'onsiz o'tmasa kuning,  
yig'lama, yolg'onsiz o'tmasa kuning,  
o'ylashga yetmasa uyqusiz tuning,  
boshingni eng sodda savollarga ber.

Mehr yo'q, shafqat yo'q, qizlarda ham yo'q,  
eng yaqin, eng aziz do'stlarda ham yo'q,  
na yo'qdir ko'zlarda, so'zlarda ham yo'q,  
o'zingni, ko'zingni xayollarga ber.

Gar ishqda Majnundan ibrat olmasang,  
ro'zg'or beshigin tebratolmasang,  
erkaklik nomiga sodiq qolmasang,  
dunyoning jilovin ayollarga ber.

Otangni otangday suymasang agar,  
el uchun, yurt uchun kuymasang agar,  
Vatanni vatanday suymasang agar,  
jisming yoq, kulini shamollarga ber.

---

<sup>1</sup> Sayyor – bu yerda beqaror, betayin, daydi ma'nosida.

\* \* \*

Sen aniq sevasan, sevasan qat'iy,  
meni esa qiynar ikkilanishlar.  
Men sodda sevaman, sevaman oddiy.  
bag'rimni kuydirar achchiq yonishlar.

Sen meni boshlaysan notanish yo'lga,  
yetaklab chiqasan go'yo tik toqqa.  
Xuddi ayb ustida tushganday qo'lga,  
men asir tushaman shirin titroqqa.

Yovvoyi o't-o'lan tizzaga urgan,  
dalada boramiz – bu qanday gullar?  
Bunisi – sachratqi, bunisi – burgan,  
marvarid shabnamlar pochamni ho'llar.

Men behush, yuraman hayron, yetakda,  
roziman, eltsang ham hatto o'linga.  
Tergan gullaringni solib etakka,  
sen chiqib olasan mening qo'linga.

Ko'tarib boryapman seni, gulingni,  
shivirlaysan: “Dunyo naqadar go'zal...”  
O'ylayman: “Nahotki shunday suluvni  
menga nasib etdi taqdiri azal?..”

Afsuski, bu tushdir. Men sevdim qat'iy,  
sening yo'ling to'sdi ikkilanishlar.

Senga yo'l bermadi qizlik iffati,  
meni tinchitmadi shirin yonishlar.

Toqqa ham chiqmadik, gul ham termadik,  
shivirlab aytmadim: "Dunyo ko'p go'zal..."  
Meni ishq qiynadi, seni-chi, – hadik,  
Nahotki shu bo'lsa taqdiri azal?..

\* \* \*

Urxun toshlariday tosh, qari tilim,  
Qoshg'ariy qoldirgan qoshg'ariy tilim.

Ham qadim, ham mangu yosh-sabiy tilim,  
Tangriga hamd aytgan Yassaviy tilim.

Aravon tog'iday xushhavo tilim,  
Navoiy lafziday xushnavo tilim.

Hindistonga ketgan Boburim – tilim,  
Hindistonda yitgan boburiy tilim.

Mening Mashrab tilim, Gulxaniy tilim,  
Zebuniso tilim, qul, g'aniy tilim.

Nodira nazmiday nodirim, tilim,  
yig'latmoqqa qodir Qodiriy tilim.

Taqdiri o'zbekning o'zidek tilim,  
bo'lib qol o'ziga o'zi bek tilim!..

\* \* \*

Entikasan, ko'zlarimga ko'z tikasan,  
mendani ko'ngling ko'targuvchi so'z kutasan.

Afsus, kutgan so'zingni men aytolmayman,  
ko'nglim solib qo'ygan yo'ldan qaytolmayman.

Dovdiratma meni, sen ham dovdirama,  
sevgi izhor qiladi deb javdirama.

Netay jur'at devoridan o'tolmasam,  
aldolmasam, rostini ham aytolmasam?

Sevaman deb aytsam agar yolg'ondakam,  
aldaganim bo'lmaydimi o'zimni ham?

Ammo, ishon, sendan boshqa yurganim – yo'q,  
hali sendan yaxshisini ko'rganim yo'q.

Bilamanki, mardlik bo'lar, bo'lar savob,  
kim sevgiga sevgi bilan bersa javob.

Kim o'ynashsa bunday nozik tuyg'u bilan,  
umri o'tar armon bilan, qayg'u bilan.

Bilamanki, uzoqlashsam sendan qancha,  
yaqinlashgim kelaverar senga shuncha.

O'zim ham bu holatimni tushunmayman,  
yo sevmayman, yo sevgimga ishonmayman.

Senga yetib, dilgir dilim chog'lamayman,  
sendan ajrab qolishni ham xohlamayman...

\* \* \*

Uxlayotgan Toshkent osmonida tun,  
mening ko'nglim yarim, garchi oy butun,  
yulduzlar – umidim o'tidan uchqun,  
ko'nglimday xuftondir bu salqin xufton.

Yo'limni supurar kuzning shamoli,  
xayolimni qiynar vasling xayoli,  
nahotki rost bo'lsa sevgim zavoli,  
nahot ko'rishmakka yo'q bo'lsa imkon?

Ko'zimdan g'am yog'ar, derazangdan nur,  
gunohim mung'ayar, g'o'dayar uzr,  
sening ko'zlaringni kuldirar g'urur,  
mening yuragimni g'ijimlar armon.

Balki sen uxlarsan yostiqqa botib,  
men esa behushman seni yo'qotib,  
kuzak shamolida sham kabi qotib,  
mo'ltirab, dildirab kutypaman hamon.

Menday sevganmikan Majnun Laylini,  
qandoq o'zgartiray zamon zaylini,  
hech qursa, tushingga kirsam maylimi,  
yo'l yopiq, yer qattiq, yiroqdir osmon...

\* \* \*

*Sochlari qop-qora, ey, go'zal kecha!*  
**Oybek**

Qanday go'zal bu kecha, bu tun,  
ko'zlaringga yo'lamas uyqu.  
Yulduzlarga nigoh sol maftun,  
Usmon Nosir she'rlarin o'qi.

Yomg'ir yog'ar, tunning ho'l, qora,  
sochlarini silaydi shamol.  
Tun zulfini mast bo'lib tara,  
qo'lga Oybek she'rlarini ol...

Tun guvohdir qotilliklarga,  
sotqinliklar guvohidir tun.  
Adashganni qulatar jarga,  
er sha'nini bulg'ar g'ar xotin.

Javob bermay savolimizga,  
to tonggacha aldar, yetaklar.  
Sehri bilan xayolimizda,  
yaratadi go'zal ertaklar.

Botir bo'lar qo'rqqoqlar tunda,  
tundan qo'r qar ba'zi jasurlar.  
Tunda illat bo'lmas sharmanda,  
ko'zga tushmas tunda qusurlar.



Zulmat ichra urchiydi riyo,  
quturadi gunohlar behad.  
Hurriyat deb atalmish ziyo,  
ruh zulmatin aritgay faqat...

Qanday go'zal, qanday qaro tun,  
ko'zlaringga yo'lamas uyqu...  
O'qi Cho'lpon she'rlarin maftun,  
Rauf Parfi she'rlarin o'qi...

\* \* \*

Imladim, jilmayib gullar keldilar,  
chorladim, o'ynoqlab yellar keldilar,  
tikildim, to'lg'onib yo'llar keldilar,  
lekin sen kelmading, kelmading, omad.

Jigarim cho'qidi g'amlar – burgutlar,  
jigarday hilvirab to'kildi tutlar,  
ko'zimning suvini ichdi bulutlar,  
sen rahm qilmading, qilmading, omad.

Baxtim qaroligin qushlar bildilar,  
qaro ko'zlar, qaro qoshlar bildilar,  
senga zorligimni toshlar bildilar,  
ammo sen bilmading, bilmading, omad.

Ingradim, sog'indim, zoriqdim, kutdim,  
tole deb qon yutdim, zardoblar yutdim,  
bu yorug' dunyodan men sensiz o'tdim,  
bilmading, kelmading, kulmading, omad.

\* \* \*

Eslaysanmi, xushbo'y ko'ylagin,  
ko'z-ko'z qilgan yosh yalpizlarni?  
Bag'rimizda g'ujg'on o'ynagan,  
rangin-rangin inja hislarni?

Yodingdami, potirlab uchgan,  
ul muattar nash'adan sarhush,  
qanot yetmas ko'klarni quchgan,  
ko'ksimizdan otilgan zar qush?..

Nahot bu qush parvozi tindi?  
Yo'qotdikmi ul boluparni?  
Yur, ziyorat qilaylik endi,  
o'shal xushbo'y xotiralarni...

Toparmikan dimog'larimiz,  
elas-elas esgan islarni?  
Tuyarmikan dudoqlarimiz,  
yalpiz bo'yli inja hislarni?

Yana qayta yonarmikanmiz,  
tuyub totli, topilmas hisni?  
Yalpizlarni tanirmikanmiz,  
tanirmikan yalpizlar bizni?..

\* \* \*

Tarix – kim uchundir muzeyda suvrat,  
kim uchundir – qissa, ertak – osuda.  
Kingadir u janglar omborxonasi,  
men uchun u – hayot, ruhiy vosita...

Men uchun u – nafas, go'yo chaqmoqlar,  
chaqib o'tgandan so'ng olingan nafas.  
U shunday tozaki, simirganingda,  
asrlar changi ham bezovta qilmas.

Kechadan bugunning farqi yo'q, ko'rdim,  
bugundan farq qilmas balki erta ham.  
Tarixni o'tmish deb biladi mardum,  
koshki kelajak deb bilsaydi odam...

Abadiyat ichra ko'zing yetmagan  
zamon nuqtalari borki, yetajak...  
Tarix mening uchun – bo'lib o'tmagan,  
tarix mening uchun – bo'lib o'tajak...

Uni tug'ar fikru xayollarimiz,  
ulg'ayar u bizning yoshimiz bilan.  
Tug'ib berar uni ayollarimiz,  
unga javobgarmiz boshimiz bilan...

\* \* \*

Isming ekib yor yodiga, ko'kartirgil,  
ishqing ekib, parvarish qil rahming bilan.  
O'ychan-o'ychan kunlarini ko'paytirgil,  
orzularin cho'chitmagil vahming bilan.

Suygil uni, sochlarini silab suygil,  
sen bo'lmasang, adoman, deb qo'rqitib suy.  
Suydir uni, kuydir uni, o'zing kuygil,  
qizg'on uni, ko'zlaringga berkitib suy.

O'zgalarga qiyo boqma yonida sen,  
rashk o'tiga otma uni, qiynamagil.  
Vafo bo'lib kirgil shaydo qoniga sen,  
shum o'ylarni o'ylamagil, o'ynamagil.

Erkalanib, erkalagil, erkiga qo'y,  
to'y kechasi yoqgil ishqiy shamlaringni.  
Chimildiqda boqib yurgan shubhangni so'y,  
sochlariga osib o'ldir g'amlaringni.

Ko'zlaridan olib vafo sabog'ini,  
xiyonatning xayolini pichoqlagil.  
Dudog'ingga nikohlagil dudog'ini,  
quchog'ini quchoq ochib quchoqlagil...

## MUNDARIJA

“Kut, yetib borgayman...” .....	3
“Bu sevgimi...” .....	4
“Uzoqlarda chirqillar...” .....	5
“Dardlarin unutdilar...” .....	6
“Nechun yana...” .....	7
Shamol.....	8
“Kuta-kutatoldim...” .....	9
Shoir.....	10
“It ko‘ziga ko‘zgu tut...” .....	11
“Shovullaydi poyimda...” .....	12
Tabiatning daftari.....	13
Singan ko‘ngil.....	15
Navjuvon ona.....	16
“Beshikka kirdimu...” .....	18
Kuzertagi.....	19
“Bitiklar bor zanjirlarda...” .....	23
“Uxla, jonim...” .....	24
“Qorayib...” .....	25
“Tashrif...” .....	26
“Oy dumalab...” .....	27
“O‘g‘lim, men uxlamayman...” .....	28
O‘zbekistonim.....	29
Uchinchi qiz.....	31
Yolg‘izlik.....	34
Madinaning qofiyali savollariga javob.....	35
Sarbadorlar qo‘shig‘i.....	36
“Ohimni ich...” .....	37
“Daryo shaffof edi...” .....	39
“Ay, Sulaymon...” .....	40

Bahovuddin Naqshband.....	42
Kubro:.....	43
Boyazid bastomiy:.....	45
Fitrat:.....	48
Abdulla Qodiriy.....	49
Asqar Qosim.....	51
Yulduz sening nomingdir.....	52
Adabiyot nima?.....	53
“Istaklarim...” .....	55
“Laylo yuzli...” .....	56
“Sayrashlar o‘zgardi...” .....	57
“Qaytar meni...” .....	58
Qur‘ondan iqtibos.....	59
“Kimga chittak...” .....	60
“Meni tashlab ketdi...” .....	61
“Bugun bor...” .....	62
Ot.....	64
“Toq bo‘ldi oxiri toqating...” .....	65
“Mening go‘zal gunohkorim...” .....	66
“Yig‘latmadi meni, azizam...” .....	67
“Sening bir kulishing...” .....	68
Bezori shamol.....	69
“Vatan haqda she‘r...” .....	70
“Zulmatlar bir kuni...” .....	71
“Nechun ko‘zlaringda yoshing...” .....	72
“Hayotning har oni...” .....	74
“Qalbim ungurida...” .....	75
“Men uni...” .....	76
“Men uchun xushbo‘y gul...” .....	77
“Uchrashgan biz emas...” .....	78
“Tosh og‘ir...” .....	79

Yashik odam.....	80
“Men tug‘ildim...” .....	84
Ko‘cha.....	87
“Men tushingman...” .....	88
“Bog‘larga atirlar sepadi bahor...” .....	89
“Men seni nahorni kutganday kutdim...” .....	90
“Umid shamollari...” .....	91
“Aqlimiz...” .....	92
“So‘zlarim...” .....	93
“Sepgan atirlaring...” .....	94
“Ayting, haqiqatni...” .....	95
“Sevgi keldi...” .....	96
“O‘, bog‘lar...” .....	97
“Tog‘ dushman izlamas...” .....	98
“Qorlar yog‘ar...” .....	100
“Aldoqchi saltanat...” .....	101
“Gung yig‘lar...” .....	102
“G‘amning qaro qushlariga...” .....	103
“Yo‘q narsani orzu qilar...” .....	104
“Bolam, bir gapim bor...” .....	105
“Bu yolg‘on dunyoda...” .....	106
“Qo‘ldoshim...” .....	107
“Sen aniq sevasan...” .....	108
“Urxun toshlariday tosh...” .....	109
“Entikasan...” .....	110
“Uxlayotgan Toshkent...” .....	111
“Qanday go‘zal bu kecha...” .....	112
“Imladim...” .....	113
“Eslaysanmi...” .....	114
“Tarix...” .....	115
“Isming ekib yor yodiga...” .....	116

**UO'K:** 821.512.133-1(081)

**KBK:** 84 (50)6

**R 74**

P 33 Sulaymon RAHMON  
“**Dunyodan she’r yig’ib, dunyoga sochdim**”  
[matn]. {she’rlar}/ Sulaymon Rahmon. – Toshkent:  
«Adabiyot» nashriyoti, 2021. 120 –b.

*Adabiy-badiiy nashr*

Sulaymon Rahmon

DUNYODAN SHE’R YIG’IB,  
DUNYOGA SOCHDIM

*She’rlar*

Muharrir: *Dilrabo Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *Farrux Ermatov*

Sahifalovchi: *Azamat Qayumov*

Musahhih: *Dilfuza Mahmudova*

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI  
«ADABIYOT NASHRIYOTI» MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2021.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (+98) 127-30-04.

Bosishga 20.08.2021-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog‘oz. Qog‘oz bichimi: 70x90<sup>1/32</sup>.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 3.7.

Adadi: 2000 nusxa. Buyurtma №

“AZMIR NASHR PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko‘chasi, 10-uy.